Kreativlik — bu inglizcha "creative" (ijodiy, yaratuvchi) soʻzidan olingan boʻlib, yangi, noodatiy va samarali gʻoyalarni oʻylab topish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatidir. Bu shunchaki ijodkorlik emas, balki muammolarga nostandart yechim topish, oʻz-oʻzini rivojlantirish va mavjud maʼlumotlar asosida yangi modellar yaratishni anglatadi. Kreativlikning asosiy xususiyatlari: Ijodkorlik va yangilik: Odatiy qoliplardan chiqib, noyob gʻoyalarni yaratish. Nostandart fikrlash: Muammolarga boshqacha nuqtai nazardan yondashish. Amaliy natija: Yaratilgan gʻoya nafaqat yangi, balki hayotda qoʻllaniladigan (samarali) boʻlishi kerak. Shaxsiy rivojlanish: Insonning oʻz imkoniyatlarini kengaytirib borishi.

Kreativlik bu - yangicha, original fikrlash, ijodiy yechimlar topish va yangilik yaratish qobiliyatidir. Pedagogik mahorat esa oqituvchining kasbiy bilim, konikma va shaxsiy sifatlarini ozida mujassam etadi. Shu bois pedagogik mahoratda kreativlik oqituvchining ijodkorligini, darslarni interfaol va qiziqarli tarzda tashkil qilishini taminlaydi.

Kreativ pedagog oquvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularni fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga, innovatsion yondashuvni qollashga ragbatlantiradi. Shu sababli pedagogik mahoratda kreativlik talim sifatini oshiruvchi muhim tarkibiy qismidir. Kreativlik — bu shaxsning noodatiy fikrlash, yangi gʻoyalar yaratish, muammolarga ijodiy yondashish va oʻziga xos yechimlar topish qobiliyatidir. Bu koʻp qirrali fenomen boʻlib, intellektual rivojlanish, motivatsiya, erkin tafakkur va tajriba almashish orqali shakllanadi. Kreativlik faqat san'atda emas, balki hayotning barcha jabhalarida, jumladan, pedagogika va innovatsiyalarda namoyon boʻladi.

Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo'ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san'at va ijtimoiy fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g'oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba'zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko'nikmadir. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

sezmoqda, bu esa, o'z navbatida, innovatsiya va kreativ fikrlash ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Kreativ fikrlash ta'siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya'ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega. Kreativ fikrlashni baholash xalqaro dasturini rivojlantirish ta'lim siyosati va pedagogikasida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Xalqaro PISA baholash dasturi bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlardagi kreativ fikrlash yo'nalishining baholashi mutasaddilarga dalillarga asoslangan to'xtamga kelishda ko'maklashuvchi aniq, ishonchli va amalga oshirish mumkin bo'lgan baholash vositasini taqdim etadi. Natijalar, shuningdek, jamiyatda ushbu muhim ko'nikmani ta'lim orqali rivojlantirishning ahamiyati va usullari borasidagi bahslarga sabab bo'ladi. PISA xalqaro baholash dasturidagi ushbu faoliyat Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ijodiy fikrlashni rivojlantirish borasidagi yangi pedagogikani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshqa bir loyihasi bilan bog'liqdir. Kreativ fikrlashda ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikma bo'lib, bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari yangilanayotgan davrga xos ko'nikmalarga ega kadrlarni talab etayotgan makonga moslashishga ko'maklashadi. Umuman olganda, bugungi o'quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi ko'nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Maktabda kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Maktab yoshlar uchun o'z qobiliyat va ko'nikmalarini, shu jumladan ijodiy iste'dodlarini kashf etishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, kreativ fikrlash o'quvchilarning ta'lim olishini hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo'llab





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

quvvatlaydi. O'quvchining qiziquvchanligi ta'lim jarayonida qo'l keladi, ijodiy fikrlash shu tariqa o'zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi, hattoki avvaldan belgilangan ta'lim maqsadlari kontekstida ham bu samara beradi. Maktabda o'quvchining motivatsiyasi va qiziqishini oshirish uchun, barcha o'quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta'limning yangi shakllari yo'lga qo'yilishi zarur. Bu ayniqsa ta'lim jarayoniga unchalik qiziqish bildirmayotgan o'quvchilarga yordam berishi mumkin va ular o'z fikrini ayta olishiga, salohiyatini ochishiga xizmat qiladi

Boshqa ko'nikmalar kabi, kreativ fikrlash ham amaliy va yo'naltirilgan yondashuv orqali rivojlantirilishi mumkin. Ba'zi o'qituvchilarga o'quvchining kreativ fikrlashini rivojlantirish o'quv dasturidagi boshqa fanlar evaziga bo'layotgandek ko'rinadi. Aslida, o'quvchilar barcha fanlarda kreativ fikrlashi mumkin. Kreativ fikrlash bilim berishga qaratilgan dars mobaynida ko'r-ko'rona yodlash o'rniga tadqiqot va ixtironi qo'llab-quvvatlaydigan yondashuvlar orqali rivojlantirilishi bilan alohida ahamiyatga ega. Kreativlikni baholash - o'quvchining qobiliyatlari haqidagi muayyan da'volarni dalilga asoslangan fikrlash jarayonida tahlil etishdir. Umuman olganda, o'quvchining baholashdagi vazifalarga javobi ushbu fikrlash jarayonida dalilla r bilan ta'minlaydi, psixometrik tahlil esa har bir da'voni tahlil qilish uchun isbotning yetarli ekanligini belgilaydi. PISA baholash dasturidan kreativ fikrlashni baholashning asosiy doirasi sifatida foydalanish mumkin. PISA dasturida 15 yoshli o'quvchilar uchun tegishli kreativ fikrlash tavsifidan foydalanadi. PISA tadqiqotida kreativ fikrlash bilim sohasida original va samarali yechimlar, yutuqlar va tasavvurni ta'sirchan ko'rinishlarga olib ke ladigan g'oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirishda samarali ishtirok etish qobiliyati deb ta'riflanadi. Ushbu tavsif o'quvchilarning turfa kontekst va ta'lim darajasida g'oya berish amaliyotida samarali qatnashishni o'rganishlari kerakligiga, g'oyaning o'ziga xosligi va munosibligini baholagan holda uning ustida mulohaza yuritishga va toki maromiga yetkazmaguncha g'oyani takomillashtirishga urg'u beradi. Bu tavsif ishlab chiqilayotganda, shuningdek, turli sohadagi mutaxassislar maslahati va





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

kreativlik borasidagi keng adabiyot tahlilining natijalari ham inobatga olingan. Kreativ fikrlash endigina shakllanayotgan talqin bo'lib turgan bir paytda ancha keng hamda kreativlik tuzilmasi kuchli tadqiqotchilik an'anasiga ega bo'ladi. Demak, kreativlik - layoqat, jarayon va muhit o'rtasidagi o'zaro munosabat bo'lib, u orqali shaxs yoki guruh ushbu ijtimoiy kontekst uchun ham yangi, ham foydali bo'lgan salmoqli mahsulotni yaratishidir.

Ijodiy maqsadlarni ro'yobga chiqarish kreativ fikrlashni taqozo etadi, lekin shu bilan birga aqliy salohiyat, soha borasidagi bilim va san'atkorlik talanti kabi kengroq va maxsus ko'nikma va qobiliyatlar ham zarur bo'ladi. Masalan, san'at durdonalari yoki texnologik kashfiyotlarni yaratish bilan bog'liq buyuk ijodkorlikda kreativ fikrlashdan tashqari salmoqli talant, chuqur bilim, muayyan sohada tinimsiz mehnat hamda jamiyat tomonidan ushbu mahsulot qiymatga ega ekanligi haqidagi e'tirof ham talab etiladi. Aksincha, kichik yoxud kundalik kreativlik (masalan, fotojurnalda rasmlarni mahorat bilan joylashtirish; oziq-ovqat qoldiqlaridan yangi taomni hosil qilish yoki ishxonadagi murakkab muammoga ijodiy yechim topish kabi) ijodiy fikrlashga qodir deyarli barcha insonlarga zarurdir

Tug'ma talantning ahamiyatini kamaytirish hamda takomillashtirish mumkin bo'lgan shaxsning kreativ fikrlash qobiliyatiga ko'proq urg'u berish maqsadida PISA tadqiqoti kreativ fikrlash yo'nalishining baholashi mana shu kichik kreativlik bilan bog'liq vazifalarga asosiy e'tiborni qaratadi. Kreativ fikrlashning bu turi nafaqat insho yozish yoki rasm chizish kabi asosan ichki dunyoni aks ettirish talab qilinadigan ta'lim kontekstiga, balki g'oya berish masalalarini tahlil etish, jamiyatdagi muammolarni hal etishga aloqador bo'lgan kengroq sohalarga ham taalluqlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gafforov Ya. X. (2020). Methods for developing a system of teaching history and increasing the effectiveness of history teaching. Индия. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research. 2020, 108.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

2. Гаффоров. Я.Х. Мактаб ислохдти ва укитиш методларини такомиллаштириш. Science and education. Sgientific Journal. 2020, 482.
3. Toshtemirova S. A. (2020). Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida // Uzluksiz ta'lim. № 1 (86). - S.5
4. Gafforov Ya.X. Toshtemirova. S. (2020). Ways to increase the effectiveness of education in an integrated environment. International Journal of Current Research and Review. India.
5. Gafforov Ya. X. (2019). THE STATE OF HUSTORICAL EDUCATION IN UZBEKISTAN DURING WORLD WAR II. USA(Philadelphia) .2019. 173-175.
6. Gafforov Ya. X. (2019). Technical approach in the education system. International journal on Integrated Education. England. 2019. 40-41.





Pedagogical Observation and Diagnostics

To‘raeva Sevara Faxriddin qizi

Xo‘shboqova Muhayyo Xayrulla qizi

3rd-year Students, Group 23-01

Faculty of Primary and Preschool Education

Termiz State Pedagogical Institute

Xolova Mohigul Shavkatovna

Abstract

This article highlights the role of pedagogical observation and diagnostics in the educational process. It provides a detailed analysis of the types and methods of pedagogical diagnostics, emphasizing their importance in monitoring development and ensuring an individualized approach in teaching and upbringing.

Keywords: pedagogical observation, diagnostics, educational process, development monitoring, individual approach, assessment, upbringing, methods, child development, analysis

Pedagogik kuzatuv va diagnostika

To‘raeva Sevara Faxriddin qizi

Xo‘shboqova Muhayyo Xayrulla qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich talim va Maktabgacha talim fakulteti

Maktabgacha talim psixologiyasi va pedagogikasi yo‘nalishi 23-01 guruh 3- bosqich

Xolova Mohigul Shavkatovna





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

Annotatsiyasi. Usbu maqolada talimda Pedagogik kuzatuv va diagnostika o'zini va pedagogik diagnostika turlari va usullari batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik kuzatuv diagnostika, ta'lim jarayoni, rivojlanish monitoringi, individual yondashuv, baholash, tarbiya, metodlar, bolalar rivoji, tahlil.

Kirish.

Hozirgi zamon ta'lim tizimida bolalarning rivojlanishini chuqur o'rganish, ularning individual xususiyatlarini aniqlash va shu asosda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik kuzatuv va diagnostika faoliyati bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Pedagogik kuzatuv va diagnostika nafaqat bolalarning bilim darajasini aniqlash, balki ularning psixologik, ijtimoiy va emotsional holatini ham baholash imkonini beradi. Bu esa tarbiyachi va pedagoglarga samarali metodlarni tanlashda yordam beradi. Pedagogik kuzatuv tushunchasi Pedagogik kuzatuv – bu bolalarning faoliyati, xulq-atvori, o'yin jarayoni va o'zaro munosabatlarini maqsadli ravishda kuzatish va tahlil qilish jarayonidir. Pedagogik kuzatuvning asosiy xususiyatlari: maqsadga yo'naltirilganlik, tizimlilik, izchillik, ob'ektivlik,

Kuzatuvning ahamiyati: bolani yaxshiroq tushunish, rivojlanish darajasini aniqlash, muammolarni erta aniqlash, individual yondashuvni ta'minlash.

Pedagogik diagnostika tushunchasi

Pedagogik diagnostika – bu ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va rivojlanish darajasini aniqlash, baholash va tahlil qilish jarayonidir. Diagnostikaning vazifalari: rivojlanish darajasini aniqlash, ta'lim strategiyasini belgilash, natijalarni prognoz qilish. Pedagogik kuzatuv va diagnostikaning o'zaro bog'liqligi. Pedagogik kuzatuv va diagnostika bir-biri bilan uzviy bog'liq: kuzatuv – ma'lumot





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

yig'adi.diagnostika – uni tahlil qiladi.Ular birgalikda quyidagilarni ta'minlaydi:bolani kompleks o'rganishindividual rivojlanish xaritasini tuzishsamarali ta'lim metodlarini tanlashKuzatuv turlari. Bevosita kuzatuv.Pedagog bolani to'g'ridan-to'g'ri kuzatadi.Bilvosita kuzatuv.Video, yozuv yoki boshqa vositalar orqali amalga oshiriladi.Uzluksiz kuzatuv.Doimiy ravishda olib boriladi. Tanlab kuzatuv Ma'lum vaziyat yoki faoliyatga qaratiladi. Diagnostika metodlari

Asosiy metodlar:suhbat,test,anketa,o'yin metodlari,amaliy topshiriqlar,Qo'shimcha metodlar:portfoliolar,rivojlanish xaritalari,psixologik testlar.Maktabgacha ta'limda kuzatuvning o'rni Maktabgacha yosh davrida bola tez rivojlanadi. Shu sababli:har bir o'zgarish muhim kuzatuv orqali rivojlanish dinamikasi aniqlanadibolaga individual yondashuv ta'minlanadi. Bolaning rivojlanish yo'nalishlari.Pedagogik diagnostika quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:jismoniy rivojlanish

nutq rivoji ijtimoiy-emotsional rivojlanish kognitiv rivojlanish ijodiy rivojlanish Kuzatuv jarayonini tashkil etish Bosqichlari:Maqsadni belgilash,Reja tuzish,Kuzatuv o'tkazish,Natijalarni yozib borish,Tahlil qilish.Diagnostika natijalarini tahlil qilish.Natijalar quyidagicha baholanadi,yuqori daraja,o'rta daraja,past daraja.Bu orqali pedagog:individual reja tuzadi,rivojlantiruvchi mashg'ulotlar tashkil qiladi.Individual yondashuv.Har bir bola o'ziga xos.Diagnostika natijalari asosida:individual topshiriqlar beriladi qobiliyatlar rivojlantiriladi muammolar bartaraf etiladi.Zamonaviy yondashuvlar Hozirgi kunda:innovatsion metodlar raqamli texnologiyalar interaktiv vositalar keng qo'llanilmoqda.Pedagogning roli. Pedagog:kuzatuvchi,tahlilchi,yo'naltiruvchi bo'lishi kerak.Uning malakasi diagnostika sifatiga bevosita ta'sir qiladi.Ota-onalar bilan hamkorlik.Diagnostika jarayonida: ota-onalar bilan aloqa muhim,uy sharoiti o'rganiladi,tavsiyalar beriladi,Muammolar va yechimlar.Muammolar,vaqt yetishmasligi,tajriba kamligi,noto'g'ri baholash.Amaliy misollar.Masalan:bola nutqi sust → nutq mashqlari beriladi ijtimoiylashuv past → guruh o'yinlari tashkil qilinadi.Monitoring va baholash.Monitoring – bu doimiy nazorat.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

U:rivojlanishni kuzatadi natijalarni solishtiradi. Innovatsion texnologiyalar elektron kundaliklar mobil ilovalar onlayn diagnostika Kelajak istiqbollari. Kelajakda: sun'iy intellekt avtomatlashtirilgan diagnostika keng rivojlanadi.

Pedagogik kuzatuv va diagnostika ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. U bolalarning individual rivojlanishini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish va samarali pedagogik faoliyatni tashkil etishda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. – Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. – Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O'zbekiston, 2016.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi – Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent, 2018.
4. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2020.
5. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun. Toshkent, 2019.





Pedagogical Diagnosis and Monitoring

Po‘latova Kamola Eshqurbon qizi

3rd-year Student, Group 301

Program: Preschool Education Psychology and Pedagogy

Termiz State Pedagogical Institute

ANNOTATION

This article discusses the role and importance of pedagogical diagnosis and monitoring in the educational process, as well as modern methods of their implementation. Through pedagogical diagnosis, issues such as identifying students' levels of knowledge, skills, and competencies, as well as studying their individual characteristics, are analyzed. In addition, the monitoring process provides opportunities to regularly control the quality of education, improve teaching effectiveness, and identify existing problems in a timely manner. The article also presents conclusions about the interrelation between pedagogical diagnosis and monitoring, their practical application, and their role in improving the education system.

Keywords: pedagogical diagnosis, monitoring, quality of education, assessment, control, pedagogical process, development, analysis.

PEDAGOGIK TASHXIS VA MONITORING

Termiz Davlat Pedagogika institute

Maktabgacha talim psixologiyasi va pedagogikasi yo‘nalishi

3-kurs 301-guruh talabasi

Po‘latova Kamola Eshqurbon qizi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada pedagogik tashxis va monitoringning ta'lim jarayonidagi o'rni, ahamiyati hamda ularni amalga oshirishning zamonaviy usullari yoritilgan. Pedagogik tashxis orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malaka darajasini aniqlash, ularning individual xususiyatlarini o'rganish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, monitoring





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

jarayoni yordamida ta'lim sifatini muntazam nazorat qilish, o'qitish samaradorligini oshirish hamda mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada pedagogik tashxis va monitoringning o'zaro bog'liqligi, ularning amaliyotdagi qo'llanilishi hamda ta'lim tizimini takomillashtirishdagi roli haqida xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik tashxis, monitoring, ta'lim sifati, baholash, nazorat, pedagogik jarayon, rivojlanish, tahlil.

Kirish: Zamonaviy pedagogik jarayonlarda o'qituvchining shaxsiy sifatlarini doimiy monitoring qilish pedagogik faoliyat sifatini oshirish, o'quvchilarni samarali ta'lim-tarbiya jarayonida boshqarish va kasbiy rivojlanishni ta'minlashning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Pedagogik monitoring, bir tomondan, o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini baholash vositasi sifatida, ikkinchi tomondan esa shaxsiy sifatlarining dinamik o'zgarishlarini aniqlash mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik monitoringning konseptual asoslari va metodologik yondashuvlari ilmiy diqqat markazida turadi, chunki u o'qituvchining professional va shaxsiy rivojlanish ko'rsatkichlarini tizimli ravishda kuzatishga imkon beradi. Shaxsiy sifatlar pedagogik faoliyatning samaradorligini belgilovchi asosiy omil sifatida qaraladi. Ularning tarkibiy qismlari orasida axloqiy-moral fazilatlar, pedagogik kreativlik, psixologik barqarorlik, kommunikativ va liderlik qobiliyatlari muhim o'rin tutadi. Pedagogik monitoring jarayonida ushbu sifatning dinamikasini baholash, ularning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va zaif tomonlarini aniqlash pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etish uchun ilmiy asos yaratadi. Shu bilan birga, shaxsiy sifatlar va kasbiy kompetensiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash, o'qituvchining individual rivojlanish strategiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega[2]. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagogik monitoring nafaqat o'qituvchining kasbiy salohiyatini baholash vositasi, balki shaxsiy rivojlanish jarayonida o'zini o'zi anglash, reflektiv faoliyat va professional identifikatsiya mexanizmlarini faollashtiradi. Shu





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

nuqtai nazardan, monitoring jarayoni o'qituvchining shaxsiy sifatlarining o'zgarishini kompleks tarzda tahlil qilishga imkon beradi, ya'ni nafaqat mavjud kompetensiyalarni baholash, balki ularni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqish vazifasini ham bajaradi. Bu jarayon pedagogik psixologiya, didaktika va ta'lim nazariyasi sohalarining integratsiyasini talab qiladi, chunki shaxsiy sifatlarni baholash va rivojlantirish ko'p o'lchovli va kontekstual yondashuvlarni zarur qiladi. Masalan, shaxsiy sifatlarni aniqlashda indikatorlar tizimi, shaffof baholash mezonlari, ko'p manbali kuzatuv va test metodlari qo'llanadi. Bular o'qituvchining shaxsiy sifatlarining dinamikasini tizimli ravishda tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, monitoring natijalarini ma'lumotlar bazasida to'plash va ularni statistik analiz qilish, shuningdek, vizualizatsiya vositalari orqali o'qituvchining rivojlanish tendensiyalarini ko'rsatish pedagogik jarayonning ilmiy asoslangan samaradorligini oshiradi. Zamonaviy ta'lim tizimlarida bu yondashuvlar o'qituvchining professional o'sishining barqaror mexanizmini yaratadi. O'qituvchi shaxsiyati va uning shaxsiy sifatlarining monitoringi nafaqat individual rivojlanish, balki maktab va ta'lim muassasalarining sifatini oshirish nuqtai nazaridan ham ahamiyatlidir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining shaxsiy sifatlaridagi ijobiy o'zgarishlar bevosita o'quvchilarning ta'lim natijalari, pedagogik motivatsiya va ijtimoiy-psixologik muhitga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, pedagogik monitoringning natijalari ta'lim jarayonida pedagogik qarorlar qabul qilish, malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish va o'qituvchining shaxsiy rivojlanishini rag'batlantirishda qo'llaniladi. Shaxsiy sifatlarining dinamikasini baholash jarayonida turli ilmiy metodlar va yondashuvlar qo'llaniladi. Masalan, kuzatuv va reflektiv jurnal metodlari, psixologik testlar va so'rovnomalar, 360-darajali baholash tizimlari, statistika va grafik tahlil vositalari orqali shaxsiy sifatlarining o'zgarishi aniqlanadi. Shu bilan birga, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, monitoring jarayoni faqat kvantitativ natijalarni emas, balki sifatli indikatorlarni ham o'z ichiga oladi, bu esa o'qituvchining shaxsiy rivojlanish jarayonini yanada chuqurroq tushunishga imkon





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

beradi. Shu yo‘l bilan pedagogik monitoring shaxsiy sifatlarning ijtimoiy-psixologik va professional komponentlarini kompleks tarzda baholash imkoniyatini beradi[6]. Bugungi kunda pedagogik monitoringning rivojlanishi, shaxsiy sifatlarni baholash mexanizmlarining ilmiy asoslanganligi va statistik vositalar bilan mustahkamlanganligi pedagogik ilm-fanning dolzarb muammolaridan biridir. Shu kontekstda, o‘qituvchining shaxsiy sifatlarning dinamikasini baholash tizimlarini yaratish va ularni ta‘lim jarayoniga integratsiya qilish nafaqat pedagogik nazariya, balki amaliy ta‘lim sohasidagi innovatsiyalarni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Monitoring natijalari orqali o‘qituvchi shaxsiyati va kasbiy faoliyatining o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek, pedagogik faoliyatning ijtimoiy-psixologik samaradorligi to‘liq ochib beriladi. Kirish qismida ta‘kidlash lozimki, pedagogik monitoringning ilmiy asoslari, shaxsiy sifatlarning indikatorli tahlili, shuningdek, ularning dinamik o‘zgarishlarini baholash mexanizmlari zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning markaziy mavzularidan biri bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, o‘qituvchining shaxsiy sifatlari va professional kompetensiyalari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aniqlash, pedagogik jarayonni boshqarish va shaxsiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqola pedagogik monitoring asosida o‘qituvchi shaxsiy sifatlarning dinamikasi va o‘zgarishlarini tizimli va kompleks tarzda baholashni maqsad qilgan bo‘ladi. Pedagogik monitoring va o‘qituvchi shaxsiy sifatlarni baholash masalalari zamonaviy ta‘lim psixologiyasida chekka masalalardan biri bo‘lib, ilmiy jamoatchilikda turli pozitsiyalar bilan bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan, Lajos Göncz (2017) va Kim va boshqalar (2019) tadqiqotlari o‘qituvchi shaxsiyati va uning pedagogik samaradorligi bo‘yicha muhim ilmiy bahslarga asos bo‘ladi. Göncz nazariy yondashuvda o‘qituvchi shaxsiyati strukturaviy modellar yordamida aniqlanishi va monitoring natijalarining konseptual asosini tashkil etishi zarurligini ta‘kidlaydi. U pedagogik jarayonda shaxsiy sifatlarni baholash va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish o‘rtasida mustahkam bog‘liqlik mavjudligini, bu esa o‘quvchilarning





ta'lim natijalari va pedagogik jarayon samaradorligini bevosita belgilashini ko'rsatadi. Biroq, Kim va boshqalar (2019) bu pozitsiyaga tanqidiy yondashadi va o'qituvchi shaxsiyati monitoringining empirik aspektlarini kuchaytirish zarurligini urg'ulaydi. Ularning fikricha, shaxsiy sifatlarni baholashda faqat nazariy model va o'zini baholash metodlariga tayanish yetarli emas; balki meta-tahlil va ko'p manbali kuzatuv metodlari yordamida real pedagogik kontekstda monitoringni amalga oshirish zarur. Kim va hamkasblari shaxsiy sifatlarni va pedagogik samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlikni statistik vositalar bilan tasdiqlash va empirik dalillar asosida strategiyalar ishlab chiqishning muhimligini ta'kidlaydi. Bu ikki yondashuv o'rtasidagi ilmiy polemika shuni ko'rsatadiki, pedagogik monitoringning nazariy va empirik komponentlarini birlashtirish zarur. Göncz konseptual va strukturaviy yondashuvni asos qilib olgan bo'lsa, Kim va boshqalar empirik ma'lumotlar bilan mustahkamlangan monitoringni qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, bu ikki pozitsiya pedagogik amaliyotda integrativ yondashuvning dolzarbligini ko'rsatadi: shaxsiy sifatlarni tizimli va indikatorli tarzda baholash, ularning kasbiy va psixologik komponentlarini kompleks tahlil qilish, shuningdek, monitoring natijalarini malaka oshirish va pedagogik qarorlar qabul qilishda strategik vosita sifatida qo'llash. Ushbu bahslar shuni anglatadiki, pedagogik monitoring nafaqat shaxsiy sifatlarni aniqlash, balki pedagogik jarayonni boshqarish va o'qituvchining shaxsiy hamda professional o'sishini rag'batlantirish mexanizmini shakllantirishda muhim ilmiy va amaliy vositadir. Göncz va Kim va boshqalarning fikrlari bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirhayitova S. I. Pedagogik texnologiya //Muqimiy nomidagi Qoqon Davlat Pedagogika Instituti, pedagogik texnologiya bo'yicha o'quv qo'llanma. Toshkent-2020.
2. Jurayev B. T. Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi //Fan va talim" Buxoro-2022.–2022. – 2022.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

3. Elmurodov U. Y. O ‘qituvchilar va talabalar o ‘rtasidagi psixologik munosabatlar: boshqaruvning o ‘zgaruvchan tabiati //Inter education & global study. – 2024. – №. 9 (1). – C. 493-499.
4. Umarova M., Abdurasulova R. Pedagogik Diagnostikaning Maqsadi Va Shaxs Rivojlanishidagi O ‘rni //Maktabgacha va Maktab Ta’limi Jurnal. – C. 675591.
5. Atajanov R. T. Trener o ‘qituvchi mahoratning mohiyati //ózbekstan respublikasí turizm hám sport ministrliги ózbekstan respublikasí joqarí hám orta arnawlí bilimlendiriw ministrliги ózbekstan mámleketlik dene tárbiyasí hám sport universiteti nókis filialí. – C. 106.
6. Xamidova M. U. Maxsus pedagogika //T.: Fan va texnologiya. – 2018.





Pedagogical Reflection and Logical Thinking

Azizova Ganjina

Student, Group 301 Program: Pedagogical Psychology in Preschool Education Faculty
of Preschool and Primary Education Termiz State Pedagogical Institute

Annotation: This article discusses the concept of pedagogical reasoning and the role of logical thinking in the educational process. It highlights the importance of analytical skills, decision-making, and effective teaching strategies in a teacher's professional activity. The paper also examines methods of developing logical thinking in students to enhance their problem-solving abilities and independent learning skills.

Keywords: pedagogical reasoning, logical thinking, education process, analysis, problem solving, critical thinking, didactics, teacher competence.

PEDAGOGIK MULOHAZA VA MANTIQIY FIKRLASH.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

Maktabgacha ta'limda pedagogik psixologiya yo'nalishi

301-guruh talabasi Azizova Ganjina

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik mulohaza yuritish jarayoni va mantiqiy fikrlashning ta'lim tizimidagi o'rni keng yoritilgan. Pedagogning kasbiy faoliyatida to'g'ri xulosa chiqarish, vaziyatni tahlil qilish, o'quvchilarning fikrlashini rivojlantirishdagi metod va yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, mantiqiy fikrlashni shakllantirish orqali o'quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik mulohaza, mantiqiy fikrlash, ta'lim jarayoni, tahlil, muammo yechimi, tanqidiy fikrlash, didaktika, o'qituvchi kompetensiyasi.

Kirish. XXI asr axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt davri bo'lib, unda oddiy ma'lumotlarni yodlash emas, balki ularni tahlil qilish, tanqid nazaridan o'tkazish va yangi yechimlar topish qobiliyati birinchi o'ringa chiqmoqda. Shu bois, zamonaviy pedagogikaning asosiy vazifasi nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda mustaqil





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

fikrlash madaniyatini shakllantirishdir. Bu jarayonda "pedagogik mulohaza" (refleksiya) va " mantiqiy fikrlash" tushunchalari ajralmas bog'liqlikka ega. Pedagogik mulohaza o'qituvchi va o'quvchining ichki dunyosidagi o'zgarishlarni anglash vositasi bo'lsa, mantiqiy fikrlash tashqi olamdagi hodisalarni to'g'ri tushunish va xulosa chiqarish kalitidir. Ushbu maqolada ushbu ikki tushunchaning mohiyati, ularning o'zaro bog'liqligi hamda ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati keng yoritiladi.

Asosiy qism

Pedagogik mulohaza – bu faoliyat jarayoni va natijalarini ongli ravishda tahlil qilish, o'z harakatlariga baho berish va kelajakdagi faoliyat uchun xulosalar chiqarish jarayonidir. Bu shunchaki "o'ylab ko'rish" emas, balki chuqur psixologik-pedagogik tahlildir. O'qituvchi nuqtai nazaridan, pedagogik mulohaza darsdan so'ng quyidagi savollarga javob izlash demakdir: *"Dars maqsadiga erishildimi?", "Qaysi usullar samarasiz bo'ldi?", "O'quvchilarning qiziqishi nimaga pasaydi?"*. Bunday tahlil o'qituvchiga o'z kasbiy mahoratini doimiy ravishda takomillashtirish imkonini beradi. Refleksiv o'qituvchi xatolaridan saboq oladi va har bir darsni oldingisidan takomillashtirilgan holda o'tadi. O'quvchi nuqtai nazaridan esa, mulohaza yuritish o'z bilimni baholash vositasidir. O'quvchi *"Men bu mavzuni qanchalik tushundim?", "Qayerda qiynaldim?", "Nima uchun bu xatoga yo'l qo'ydim?"* degan savollar orqali o'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi. Bu esa passiv tinglovchidan aktiv tadqiqotchiga aylanish jarayonini tezlashtiradi.

Mantiqiy fikrlash – bu fikrlarni izchil, asosli va qonuniyatlar asosida bayon qilish qobiliyatidir. U quyidagi asosiy operatsiyalarni o'z ichiga oladi:

Tahlil va sintez: Murakkab narsalarni qismlarga ajratish va qismlardan butun hosil qilish.

Taqqoslash: O'xshashlik va farqlarni aniqlash.

Umumlashtirish: Xususiy holatlardan umumiy xulosaga kelish.





Sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlash: Hodisalarning nega va qanday sodir bo‘lganligini tushunish. Mantiqiy fikrlashi rivojlangan o‘quvchi har qanday axborotni shubha ostiga olishga, dalillarni tekshirishga va haqiqatni yolg‘ondan ajratishga qodir bo‘ladi. Bu qobiliyat nafaqat aniq fanlarda (matematika, fizika), balki ijtimoiy-gumanitar fanlarda ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, tarixiy voqealarni baholashda yoki adabiy asar qahramonlarining xatti-harakatlarini tahlil qilishda mantiqiy yondashuv talab etiladi. Bu ikki tushuncha bir-birini to‘ldiruvchi kuchlardir. Mantiqiy fikrlash "qanday fikrlash kerak?" degan savolga texnik javob bersa, pedagogik mulohaza "nima uchun shunday fikrladim?" va "bu fikr qanchalik to‘g‘ri?" degan savollarga meta-kognitiv (metabilm) javob beradi. Mulohaza mantiqni charxlaydi: O‘quvchi o‘z xatosini tahlil qilganda (mulohaza), u xatoning mantiqiy zanjirini topadi. Masalan, masala yechishda noto‘g‘ri formulani qo‘llaganini anglashi uchun u avval o‘z fikr yuritish jarayonini qayta ko‘rib chiqishi kerak. Mantiq mulohazani chuqurlashtiradi: Shunchaki "men tushunmadim" deyish o‘rniga, mantiqiy fikrlash orqali o‘quvchi "Men tushunmadim, chunki A tushunchasi B tushunchasi bilan bog‘liq ekanligini hisobga olmaganman" deb aniq xulosa chiqaradi. Bu esa muammoni hal qilishni osonlashtiradi. Zamonaviy dars jarayonida ushbu ko‘nikmalarni shakllantirish uchun quyidagi usullardan foydalanish tavsiya etiladi:

"Nima? Nega? Qanday?" strategiyasi: Har bir yangi mavzu yoki muammo yuzasidan ushbu uchta savol atrofida bahs-munozara tashkil etish.

Keys-stadi (Vaziyatli tahlil): Haqiqiy hayotiy muammolarni yechish orqali o‘quvchilarni mantiqiy zanjir qurishga undash.

Refleksiv kundaliklar: O‘quvchilarga dars yakunida o‘z hiss-tuyg‘ulari va o‘zlashtirgan bilimlari haqida qisqa insho yozdirish.

Sokrat suhbatlari: O‘qituvchining tayyor javob bermasdan, savollar orqali o‘quvchini to‘g‘ri xulosaga o‘zi kelishiga yo‘naltirishi.





Xatolar ustida ishlash: Xatoni jazolash emas, balki uni "o'rganish imkoniyati" sifatida qarash va xatoning mantiqiy ildizini qidirish.

Yakuniy qism

Xulosa qilib aytganda, pedagogik mulohaza va mantiqiy fikrlash zamonaviy ta'limning ikki qanotidir. Ularsiz bilim berish jarayoni mexanik va samarasiz bo'lib qoladi. Pedagogik mulohaza shaxsning ichki dunyosini boyitib, o'z-o'zini anglash va rivojlantirishga xizmat qilsa, mantiqiy fikrlash tashqi dunyoni idrok etish, muammolarni yechish va innovatsion g'oyalar yaratishga zamin yaratadi. Kelajak mutaxassisi nafaqat chuqur bilimga, balki tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi shart. Shu sababli, o'qituvchilar o'z faoliyatida reflektiv yondashuvni doimiy qo'llashlari va o'quvchilarda mantiqiy tafakkurni shakllantirishga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Faqat shu ikki omil uyg'unligigina haqiqiy ma'noda mustaqil, erkin va raqobatbardosh shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. Ta'lim tizimidagi islohotlar ham aynan shu – "fikrlaydigan inson"ni shakllantirish g'oyasiga asoslanishi kerak.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

1. To'xtasinov N., Qodirov A. *Pedagogika asoslari*. – Toshkent: "O'qituvchi", 2018.
2. Karimov Sh., Xolmatov B. *O'qituvchi faoliyatida reflektiv yondashuv*. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020.
3. Paul R., Elder L. *Tanqidiy va mantiqiy fikrlash asoslari* (o'zbek tiliga moslashtirilgan nashr). – Toshkent: "Ma'naviyat", 2019.
4. Yo'ldoshev M., Raximova G. *Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi*. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. *Umumiy o'rta ta'limda kompetensiyaviy yondashuv: metodik qo'llanma*. – Toshkent, 2022.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

Modern Approaches in Pedagogical Control

Ro'ziyeva Rayhona

Zamonova Sohiba

3rd-year Students, Group 301

Faculty of Preschool and Primary Education

Program: Preschool Education Psychology and Pedagogy

Termiz State Pedagogical Institute

Abstract

This article examines modern approaches used in the process of pedagogical control and highlights their role and significance in improving the quality of education. Traditional and innovative forms of pedagogical control are analyzed, with particular attention given to digital technologies, competency-based approaches, and learner-centered assessment systems.

Furthermore, the effectiveness of modern methods in objectively evaluating students' knowledge, skills, and competencies is substantiated. The article is of practical importance for educators and specialists in the field of education.

Keywords: pedagogical control, modern approach, assessment system, competence, quality of education, digital technologies, innovative methods, learner-centered education, objective assessment, monitoring, educational process, reflective approach, constructivist approach.

Pedagogik nazoratda zamonaviy yondashuv.

Termiz davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim fakulteti

Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi yo'nalishi

3- kurs 301- guruh talabalar

Ro'ziyeva Rayhona

Zamonova Sohiba





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik nazorat jarayonida qo'llanilayotgan zamonaviy yondashuvlar, ularning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni va ahamiyati yoritiladi. Pedagogik nazoratning an'anaviy va innovatsion shakllari tahlil qilinib, raqamli texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosidagi nazorat tizimlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini obyektiv baholashda zamonaviy metodlarning samaradorligi asoslab beriladi. Maqola pedagoglar va ta'lim sohasidagi mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Pedagogik nazorat, zamonaviy yondashuv, baholash tizimi, kompetensiya, ta'lim sifati, raqamli texnologiyalar, innovatsion metodlar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, obyektiv baholash, monitoring, o'quv jarayoni, reflektiv yondashuv. konstruktivistik.

Bugungi kunda ta'lim tizimi jadal rivojlanib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda takomillashib bormoqda. Shu sababli an'anaviy o'qitish usullari o'rnini zamonaviy pedagogik yondashuvlar egallamoqda. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularni faol o'quv subyektiga aylantirish va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogik nazorat – ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, tahlil qilish va baholashga qaratilgan tizimli jarayondir. U o'qitish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar — bu ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quvchi shaxsini markazga qo'ygan, uning individual xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladigan metod va texnologiyalar majmuasidir. Ushbu yondashuvlarning asosiy maqsadi: o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish amaliy bilimlarni mustahkamlash Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning asosiy turlari.

Konstruktivistik yondashuv

Kompetensiyaviy yondashuv

Faoliyatga asoslangan yondashuv

Zamonaviy yondashuvlarning afzalliklari o'quvchilarni faollashtiradi mustaqil fikrlashni rivojlantiradi ta'lim samaradorligini oshiradi ijodkorlikni rivojlantiradi Muammolar va yechimlar malaka oshirish kurslari texnologiyalarni joriy etish samarali rejalashtirish.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar ta'lim tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular orqali o'quvchilarning bilim darajasi, mustaqil fikrlashi va amaliy ko'nikmalari sezilarli darajada oshadi.

Zamonaviy pedagogik nazorat obyektivlik, shaffoflik, tizimlilik, uzluksizlik va rivojlantiruvchanlik tamoyillariga asoslanadi. Nazorat jarayoni oquvchini jazolashga emas, balki uning bilim va konikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Raqamli nazorat vositalari

Bugungi kunda onlayn testlar, elektron jurnallar, LMS platformalar orqali nazorat olib borish keng ommalashmoqda. Bu vositalar nazorat natijalarini tezkor tahlil qilish va individual yondashuvni kuchaytirish imkonini beradi.

Zamonaviy nazorat tizimida oqituvchi nazoratchi emas, balki tahlilchi va yonaltiruvchi sifatida faoliyat yuritadi. U oquvchilarga konstruktiv fikr-mulohaza berib, ularning talim jarayonidagi faol ishtirokini taminlaydi.

Pedagogik nazorat talim jarayonining muhim tarkibiy qismi bolib, u oquvchilarning bilim, konikma va malakalarini aniqlash, tahlil qilish hamda baholash orqali talim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy talim tizimida pedagogik nazorat faqat natijani tekshiruvchi vosita sifatida emas, balki oquvchi shaxsini rivojlantiruvchi, talim





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

jarayonini takomillashtiruvchi pedagogik mexanizm sifatida qaraladi. Shu bois bugungi kunda pedagogik nazoratga yangicha yondashuvlar joriy etilmoqda.

Ananaviy pedagogik nazoratda asosan bilimlarning hajmi va ularning qay darajada ozlashtirilgani baholangan bolsa, zamonaviy yondashuvlarda oquvchining kompetensiyalari, mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyati va amaliy faoliyatga tayyorgarligi asosiy mezon sifatida etirof etiladi. Bunday yondashuv shaxsga yonaltirilgan talim goyalariga mos keladi va har bir oquvchining individual rivojlanish suratini hisobga olishni talab etadi.

Zamonaviy pedagogik nazorat diagnostik, formatif va summativ nazorat turlarining uygunligiga asoslanadi. Diagnostik nazorat oquvchilarning boshlangich bilim darajasini aniqlashga xizmat qilib, oqituvchiga talim jarayonini to'g'ri rejalashtirish imkonini beradi. Formatif nazorat esa oquv jarayonida muntazam olib borilib, oquvchining rivojlanish dinamikasini kuzatish, xatolarni oz vaqtida aniqlash va tuzatishga yonaltiriladi. Summativ nazorat esa malum bosqich yoki davr yakunida oquvchilarning umumiy yutuqlarini baholashga xizmat qiladi.

Pedagogik nazoratda zamonaviy yondashuvlarning muhim jihatlaridan biri baholashning shaffof va obyektiv bolishidir. Baholash mezonlarining oldindan aniq belgilanishi, oquvchilarga tushunarli tarzda yetkazilishi hamda bir xil talab asosida amalga oshirilishi talim jarayonida adolatni taminlaydi. Shu bilan birga, baholash natijalari oquvchini jazolashga emas, balki ragbatlantirishga va oz ustida ishlashga undashi lozim.

Zamonaviy pedagogik nazoratda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Elektron testlar, onlayn baholash platformalari, elektron jurnallar va masofaviy talim tizimlari nazorat jarayonini tezkor va samarali tashkil etish imkonini beradi. Bu esa oqituvchining vaqtini tejab, oquvchilarning bilim darajasini tahlil qilishni osonlashtiradi hamda inson omili tasirini kamaytiradi.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

Shuningdek, zamonaviy yondashuvlarda oz-ozini baholash va ozaro baholashga alohida etibor qaratiladi. Bu usullar oquvchilarda tanqidiy fikrlash, masuliyat va refleksiya konikmalarini shakllantiradi. Oquvchi oz bilimni mustaqil tahlil qilish orqali oz kuchli va zaif tomonlarini anglay boshlaydi, bu esa uning shaxsiy rivojiga ijobiy tasir krsatadi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik nazoratda zamonaviy yondashuvlar ta'lim tizimini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi. Ular o'quvchilarning nafaqat bilimni, balki kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlar pedagogik nazoratni yanada samarali, obyektiv va shaffof qiladi. Kelajakda ta'lim tizimining asosiy yo'nalishi ham aynan shunday zamonaviy yondashuvlarga asoslanishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Azizxojayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, 2018.
Muslimov N.A. Pedagogika. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
Yoldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Oqituvchi, 2019.
Ishmuhamedov R.J. Talimda innovatsion texnologiyalar. Toshkent, 2017.
Xodjayev B.X. Talim sifatini baholash va monitoring. Toshkent, 2021.
Ozbekiston Respublikasi Talim togrisidagi Qonuni. 2020.
Ozbekiston Respublikasi Prezidentining talim sohasiga oid qaror va farmonlari.





Initiative in Pedagogical Activity

Eraliyeva Nazokat Chorshanbi qizi

Turayeva Linnura Yusuf qizi

3rd-year Students, Group 301 Program: Preschool Education Psychology and
Pedagogy Termiz State Pedagogical Institute

ANNOTATION. This article discusses the essence, importance, and role of initiative in pedagogical activity within the educational process. It analyzes the specific characteristics of an initiative-driven teacher's professional practice, their use of modern educational technologies, and their role in encouraging student engagement. The article also examines how initiative contributes to increasing lesson effectiveness, developing students' independent thinking, and fostering a creative approach. The findings show that teachers' initiative is an important factor in improving the quality of education.

KEYWORDS: Pedagogical activity, initiative, teacher competence, educational effectiveness, innovative methods, interactive techniques, creative approach, student engagement, independent thinking, modern educational technologies.

PEDAGOGIK FAOLIYATDA TASHABBUSKORLIK

Termiz Davlat Pedagogika institute Maktabgacha talim psixologiyasi va pedagogikasi
yo'nalishi 3-kurs 301-guruh talabasi

Eraliyeva Nazokat Chorshanbi qizi

Turayeva Linnura Yusuf qizi

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada pedagogik faoliyatda tashabbuskorlikning mazmuni, ahamiyati va uning ta'lim jarayonidagi o'rni yoritiladi. Tashabbuskor pedagogning kasbiy faoliyatidagi o'ziga xos jihatlari, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishdagi roli hamda o'quvchilarni faollikka undashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada tashabbuskorlik orqali dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ijodiy yondashuvni shakllantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

pedagoglarning tashabbuskorligi ta'lim sifatini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

KALIT SO'ZLAR: Pedagogik faoliyat, tashabbuskorlik, o'qituvchi mahorati, ta'lim samaradorligi, innovatsion metodlar, interaktiv usullar, ijodiy yondashuv, o'quvchi faolligi, mustaqil fikrlash, zamonaviy ta'lim texnologiyalari

Bo'lajak o'qituvchining tashabbuskorligini qo'llab quvatlash oliy pedagogik ta'lim oldiga qo'yilgan asosiy maqsadlardan biridir. Bugungi kunda an'anaviy pedagogikadan kollaborativ, o'zaro hamkorlik, sheriklik, birgalikda rivojlanish va birgalikda ijod qilish uchun qulay sharoit yaratadigan munosabatlar pedagogikasiga o'tish jarayoni davom etmoqda. Tashabbuskorlikning asoslari bo'lajak o'qituvchilarda oliy pedagogik ta'limning dastlabki davridayoq shakllanishi kerak. Bu davrda bo'lajak o'qituvchilar kasbiy bilimlarni o'zlashtirishga kirishadilar. Professoro'qituvchilar va guruhdoshlari bilan muloqot va hamkorlik qila boshlaydilar. Bo'lajak o'qituvchilarda tashabbuskorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy metodik tavsiyalar yangi pedagogik texnologiyalarga asoslanadi. Bu jarayonda dastlab talabalarga tashabbuskorlik haqidagi bilimlarni taqdim etish, ularda tashabbuskorlik motivlarini shakllantirish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda kommunikativ, bilishga asoslangan hamda ijodiy tashabbuskorlik haqida bo'lajak o'qituvchilarda aniq tasavvur hosil qilinadi. Bo'lajak o'qituvchilarda shakllantiriladigan pedagogik tashabbuskorlikning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Ularda bilish tashabbuskorligini rivojlantirishning shart-sharoitlari, bilishga asoslangan hamda intellektual faollikning ko'rinishlari, tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlashning samarali shakllari haqida tasavvur hosil qilinadi. Ushbu maqsadga yo'naltirilgan yangi pedagogik texnologiyalar tavsiflanadi. Ularni bo'lajak o'qituvchilarda tashabbuskorlikni rivojlantirishga yo'naltirish mexanizmlari o'rganiladi. Tashabbuskorlik bo'lajak o'qituvchining faol kasbiy harakatlarga moyilligi, layoqatligini ifodalovchi hodisa sifatida tavsiflanadi. K.Abulxanovanning ta'biricha tashabbuskorlik shaxsning o'z o'zini namoyon etishi,





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

boshqalarga nisbatan faollikka asoslangan munosabatning ifodalanishidir. Ye.A.Ponogin tashabbuskorlikni faollik shakli, keng ko‘lamli faoliyatning asosiy sababchisi sifatida baholagan. Shu bilan bir qatorda mutaxassis uning tarkibi, motivatsion ehtiyojalari, hissiy va kognitiv komponentlarini ham aniqlaydi. Tashabbuskorlik ikki bosqichda namoyon bo‘ladi:

1. Yangi fikrni ilgari surish
2. Ilgari surilgan yangi fikrni amalga oshirish

Pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tashabbuskorligi bosqichma bosqich rivojlanadi. Shuning uchun ham tashabbuskorlik quyidagi maqsadlarga asoslanadi.

- kasbiy-ijodiy tashabbuskorlik;
- bo‘lajak o‘qituvchining maqsadga yo‘naltirilgan va irodaviy kuchga asoslangan tashabbuskorlik;
- kommunikativ tashabbuskorlik;
- bilishga asoslangan tashabbuskorlik kabilar.

Bo‘lajak o‘qituvchining maqsadga yo‘naltirilgan va iroda kuchiga asoslangan tashabbuskorligi uni mahsuldor faoliyatning turli shakllarini amalga oshirishga jalb etadi. Jumladan, kasbiy bilimlarni egallash, o‘zlashtirilgan bilimlarini amaliyotda qo‘llash, o‘quv jarayonini modellashtirish va konsruksiyalash, yangi pedagogik g‘oyalarni generatsiyalash, vujudga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etish, kommunikativ faollik ko‘rsatish, o‘z nutqini muntazam rivojlantirish va boshqarish kabilar. Tashabbuskorlik talabalarni ijodiy faoliyat ko‘rsatishga undaydi. Ular tashabbuskorlik natijasida o‘quv jarayonida faollik ko‘rsatadilar. Ularning faoliyat mahsuli o‘quv jarayoni yakunida namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayonda oldindan aniqlangan maqsadlar shakllanmaydi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning bilishga asoslangan tashabbuskorligi yangi kasbiy bilimlarni izlab topish va uni amaliy faoliyatda qo‘llashga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Bu jarayonda ular pedagogik hodisalarni chuqur tahlil





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

qiladilar va o'z harakatlarini muntazam takrorlaydilar. Kommunikativ tashabbuskorlik esa bo'lajak o'qituvchilarning diskurs munosabatlariga kirishishlariga yo'l ochadi. Kommunikativ tashabbuskorlik bo'lajak o'qituvchilarni kollaborativ faoliyat ko'rsatish va shaxslararo munosabatlarga kirishishga undaydi. Ular muntazam tarzda muloqotga moyil bo'ladilar va atrofdagilar bilan aloqa o'rnatadilar. Kommunikativ tashabbuskorlik yakkama yakkam tarzda amalga oshiriladigan, suhbatdan keng ko'lamli muloqot va shaxslararo munosabatlarga o'tishni ta'minlaydi. Bunday suhbat va munosabatlar turli usullar yordamida amalga oshiriladi. Ular: o'zaro kurashsiz, ixtiyoriy, ayni bir shaxsning irodasiga ko'ra, tashabbuskorlikka ega bo'lgan shaxs tomonidan yoki raqobatlashish va kurashchanlik asosida amalga oshiriladi. Bularning barchasi diskurs jarayonida shakllanadi. Bilishga asoslangan tashabbuskorligi bo'lajak o'qituvchining qiziquvchanligi uncha murakkab bo'lmagan bilishga asoslangan faoliyatga kirishishi asosida sabab oqibat bog'lanishlarini amalga oshirishi, zamon va makon birligini anglab yetishi natijasida amalga oshiriladi. Bilishga asoslangan tashabbuskorlik bo'lajak o'qituvchilar kasbiy muammolarni yechishga kirishganlarida vujudga keladi. Professor-o'qituvchilar talabalarda bilishga asoslangan tashabbuskorlikning vujudga kelishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishlari kerak. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilarni loyiha faoliyatiga jalb etish muhim ahamiyatga ega. Bilishga asoslangan tashabbuskorlik talabalardan erkin, mustaqil, bilimlarni o'zlashtirishga mo'ljallangan harakatlarni amalga oshirishni talab qiladi. Bu jarayonda bo'lajak o'qituvchi muhim topshiriqlarni bajarish uchun o'zlarining bilim, ko'nikma, malakalarini to'la qonli tarzda safarbar qiladilar. Bo'lajak o'qituvchilarda bilishga asoslangan tashabbuskorlik egallashga kirishgan kasbiy faoliyatlarining mazmun mohiyatini anglab yetganlarida vujudga keladi. Bilishga asoslangan tashabbuskorlik ularning oliy pedagogik ta'lim jarayonida samarali rivojlanishlari uchun talabalar oldiga muammoli topshiriqlar qo'yish, ularni mustaqil faoliyatga ko'proq jalb etish talab qilinadi. Bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy tashabbuskorlikni rivojlantirish alohida pedagogik ahamiyatga





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

ega bo‘lib, ularning metodik mahoratini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchining ijodiy tashabbuskorligi tushunchasi doirasida talabalarning mustaqil izlanishga oid faoliyati va uning mahsuldor natijalari tushuniladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy tashabbuskorligi o‘zaro aloqador bo‘lgan bir qator harakatlar natijasida vujudga keladi. Uning mazmuni bo‘lajak o‘qituvchilarga taqdim etilayotgan bilimlar va faoliyat usullari bilan bog‘liq bo‘ladi. Ijodiy hamda bilishga asoslangan tashabbuskorlik bo‘lajak o‘qituvchilarning kognitiv faoliyatni amalga oshirishlari, bilimlarni kognitiv o‘zlashtirishlari va mahsuldor natijalarga erishishga in tilishlari natijasida vujudga keladi. Shuning uchun ham professoro‘qituvchilar oliy pedagogik ta‘lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda tashabbuskorlikning barcha turlarini birdek rivojlantirishga ko‘maklashadigan pedagogik muhitni yaratishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. R.Safarova, G.Khasanova. Organizing an environment for cooperation of students in the educational process (for ensuring the development of the new Uzbekistan society). XVI International Scientific-Practical Conference “Actual Problems of Improving Farming Productivity and Agroecology” (IPFA 2024), E3S Weof Conferences Volume 538,2024. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202453805044>
2. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar. Monografiya. – Toshkent: “Science and innovation”, 2024.
–186-bet.<https://doi.org/10.5281/zenodo.10355987>,
<https://zenodo.org/records/10355987>
3. Абульханова-Славская, К. А. Состояние современной психологии: субъектная парадигма / К. А. Абульханова-Славская // Предмет и метод психологии. — М., 2005. — С. 428—450.
4. Погонина Е.А. Психологические особенности инициативы старших школьников в общественной деятельности и условия ее развития: автореферат дис. канд. психол. наук: 19.00.01 – Брянск, 2007. –





Modern Assessment System in Education

Choriyeva Zarnigor O‘rol qizi

Jo‘rayeva Fazilat Abdumurod qizi

3rd-year Students, Group 301 Program: Preschool Education Psychology and
Pedagogy Termiz State Pedagogical Institute

ANNOTATION.

This article analyzes the essence of the modern assessment system in education, its differences from traditional evaluation methods, and its importance in the learning process. Modern assessment approaches are distinguished by their focus not only on measuring students' knowledge but also on evaluating their competencies, critical thinking skills, problem-solving abilities, and practical knowledge. The article also highlights the effectiveness of formative and summative assessment, rating systems, portfolios, self-assessment, and digital technologies in evaluation

Keywords

modern assessment, education system, formative assessment, summative assessment, competence, criterion-based assessment, portfolio, rating system, self-assessment, digital assessment, pedagogical technologies, educational effectiveness

TA'LIMDA ZAMONAVIY BAHOLASH TIZIMI

Termiz Davlat Pedagogika institute Maktabgacha talim psixologiyasi va pedagogikasi
yo‘nalishi 3-kurs 301-guruh talabasi

Choriyeva Zarnigor O‘rol qizi, Jo‘rayeva Fazilat Abdumurod qizi

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada ta'limda zamonaviy baholash tizimining mohiyati, uning an'anaviy baholash usullaridan farqli jihatlari hamda o'quv jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy baholash yondashuvlari o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning kompetensiyalari, tanqidiy fikrlashi, muammolarni hal qilish qobiliyati va amaliy ko'nikmalarini aniqlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, maqolada formatif va summativ





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

baholash, reyting tizimi, portfoliolar, o‘z-o‘zini baholash hamda raqamli texnologiyalar asosida baholash usullarining samaradorligi yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar. Zamonaviy baholash, ta’lim tizimi, formativ baholash, summativ baholash, kompetensiya, kriterial baholash, portfolio, reyting tizimi, o‘z-o‘zini baholash, raqamli baholash, pedagogik texnologiyalar, ta’lim samaradorligi.

Bugungi kunda jamiyatimizning barcha sohalarida o'zgarishlar, jahon standartlariga javob berish uchun jadal rivojlanishlar yuz bermoqda. Bu esa o'z navbatida, oily ta'lim muassasalari boshqaruvida yangicha tizim asosida yondashuvni talab etadi. Baholash ta'lim jarayonining muhim qismi hisoblanadi. Ta'lim sifatini hamda o'quvchilarni bilim darajalarini doimiy ravishda nazorat qilib borish ta'lim jarayoniga muhim yangiliklar kiritishga asoas bo'ladi. Bugungi kunda yangi tizim asosida baholashning turli shakllari ishlab chiqilgan va talim jarayoniga taqdim etilmoqda. Shulardan biri formativ baholashdir.

Baholash deganda biz bolaning hozirgi yutuqlarini (muvaffaqiyatsizliklarini), oldingi yutuqlari (muvaffaqiyatsizliklari) bilan taqqoslash jarayonini va o'quv natijalarini amaldagi o'quv standartlari tomonidan belgilangan normalar bilan o'zaro bog'liqligini tushunamiz. Baholash mezonlari va shakllarini yaratish jarayoni o'quvchilar bilan birgalikda amalga oshiriladi va biz buni bolalarning qadr-qimmatini shakllantirishning bir usuli deb bilamiz. O'qitish jarayonida o'qituvchilar tomonidan qabul qilingan rasmiy va norasmiy baholash usullari to'plami "Formativ baholash" (shakllantiruvchi) deb nomlanadi. Bu o'qituvchilar tomonidan olib boriladigan o'quv jarayonining bir qismi bo'lib, o'quv va o'qitish usullarini o'zgartirish orqali o'quvchining tushunchasi va malakasini oshirishga qaratilgan. Formativ baholash o'qituvchilarga ham, o'quvchilarga ham o'quvchining faoliyati va o'rganishi to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri va batavsil mulohazalar berishga harakat qiladi. Bu o'quv jarayonida o'quvchilarning ehtiyojlari va taraqqiyotni kuzatadigan doimiy jarayon. Formativ baholashning asosiy vazifasi o'quv yili uchun qo'yilgan maqsadlarning bajarilishi yoki bajarilmaganligini





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

aniqlash. Shuning uchun o'qituvchilar ham o'quvchilar ham o'quv yili davomida erishmoqchi bo'lgan o'quv maqsadlarni aniq bilishlari kerak. O'quv maqsadlari rasmiy shaklda o'qituvchi ish rejalarida aks etadi. Yoki o'qituvchi norasmiy shaklda o'quvchilar bilan birgalikda o'quv maqsadlarni aniqlab olishi mumkin bo'ladi. Formativ baho o'quvchilar ta'lim jarayonida faol rol o'ynashi kerak degan fikrdan boshlanadi. Formativ baholashda o'quv maqsadiga erishish uchun zarur bo'lgan qadamlar (mexanizmlar) aniq belgilanadi. Biroq bunga erishish uchun baholash yaxshi ishlab chiqilgan bo'lishi kerak. Bu jarayonda o'quvchilar orasida o'z-o'zini baholash va hamkorlik qilishga katta e'tibor qaratiladi va rag'batlantiriladi. Marina Aleksandrovna Pinskaya, pedagogika fanlari nomzodi, tadqiqotchi "Baholashning yangi shakllari" kitobida quyidagilarni yozadi: Formativ baholash o'quv jarayoni nafaqat yakuniy bosqichda, balki boshlang'ich va o'rta bosqichda qanday o'tayotganiga tashxis qo'yish uchun zarur, va agar ma'lumotlar qoniqarsiz bo'lib chiqsa, olingan ma'lumotlar asosida kerakli ma'lumotlarni kiritish va ta'lim faoliyati sifatini oshirish uchun o'zgartirishlar kiritish mumkin. Formativ baholash butun o'quv dasturi o'rniga individual o'quv mahoratiga yoki o'quv dasturidagi ko'nikmalarga yo'naltiriladi. Ushbu baholashlar ma'lum bir maqsad sari intilishni o'lchash uchun mo'ljallanadi deb aytadi.

Formativ baholashning eng foydali qismlaridan biri shundan iboratki, shakllantiruvchi baholashning yagona uslubi yo'q. Buning o'rniga mavjud bo'lgan yuzlab turli xil baholash usullari mavjud. Har bir o'qituvchi potentsial shakllantiruvchi baholashning chuqur repertuarini ishlab chiqishi mumkin. Bundan tashqari, o'qituvchilar shakllantiruvchi baholashni o'quvchilarining ehtiyojlariga moslashtirish va o'zgartirishlari mumkin. Bu juda muhim, chunki tafovut o'quvchilarni jalb qilishga yordam beradi va o'qituvchining o'rganilayotgan tushunchalarni to'g'ri baholashiga mos kelishini ta'minlaydi. Variantlarga ega bo'lish, shuningdek, o'quvchilar yil davomida ularning shaxsiy imtiyozlari yoki kuchli tomonlariga va zaif tomonlariga tabiiy ravishda mos keladigan baholashning turlarini ko'rishlariga yordam beradi. Formativ





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

baholashning eng yaxshi turi bu jalb qilish, o'quvchilarning kuchli tomonlariga moslashish va qo'shimcha o'qitish yoki yordamga muhtoj bo'lgan sohalarni aniqlash. Formativ baholash o'qituvchilar va o'quvchilar uchun juda ko'p ahamiyatga ega bo'lgan tasdiqlangan o'quv vositasidir. O'qituvchilar kelgusidagi darslarga rahbarlik qilish, o'quvchilar uchun individual o'quv maqsadlarini ishlab chiqish va o'quvchilarga taqdim etilayotgan darslarning sifati to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni olish uchun shakllantiruvchi baholashni ishlab chiqish va undan foydalanishlari mumkin.

Sinflarida muntazam, doimiy shakllantiruvchi baholashdan foydalanadigan o'qituvchilar, o'quvchilarning faolligi va o'qishi ortib borayotganligini aniqlaydilar. O'qituvchilar shakllantiruvchi baholashdan olingan ma'lumotlardan butun guruh uchun ham, individual darslar uchun ham o'quv qo'llanmalarini o'zgartirish uchun foydalanishlari mumkin. O'quvchilar shakllantiruvchi baholashda ular o'zlarining qaerdaligini har doim bilishlarini va o'zlarining kuchli va kuchsiz tomonlarini tobora ko'proq anglab etishlari uchun foydali bo'ladi. Formativ baholashlarni tuzish oson, olish oson, to'plash oson va natijalardan foydalanish oson. Bunga qo'shimcha ravishda, ular bajarilishi uchun cheklangan vaqt talab etiladi. Formativ baholash o'quvchilarga individual maqsadlarni belgilashda yordam beradi va har kuni yutuqlarni kuzatib boradi.

Har qanday sinfda ishlatilishi mumkin bo'lgan formativ baholashning turli xil mexanizmlari mavjud. Ko'proq mashhur bo'lganlardan ba'zilari:

1. Bevosita so'roq qilish yoki uyga berilgan vazifalar,
2. O'qish jarayonidagi javob jurnallari yoki dars paytida beriladigan topshiriqlar,
3. Dars paytida o'tkaziladigan nazorat ishlari,
4. Grafik tashkilotchilik yoki o'quvchilarning darsdagi faolligini kuzatish,
5. Qaytuvchan aloqani amalga oshirish,
6. O'quvchilarning o'z-o'zini baholashi,
7. Natijaga asoslanib ta'lim jarayoniga o'zgartirish kiritish imkoni.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

Formativ baholash diagnostik, standartlashtirilgan testlar, viktorinalar, og'zaki savollar yoki qoralama ish shaklida ham bo'lishi mumkin. Formativ baholash ko'rsatmalar bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

Formativ baholashning keng tarqalgan shakli bu diagnostik baholash. Diagnostik baholash o'quvning tegishli dasturini aniqlash maqsadida o'quvchining hozirgi bilim va ko'nikmalarini o'ldaydi. O'z-o'zini baholash bu o'quvchilarning o'zlarini baholashni o'z ichiga olgan diagnostik baholash shakli. O'qituvchilar o'quvchilar uchun eng foydali va ta'lim faoliyati uchun zarur bo'lgan shakllantiruvchi baholash turlarini yaratish va ulardan foydalanishlari kerak. Formativ baholar yakuniy baholarga ta'sir qilmaydi va bu o'quvchilarda materialni dastlabki assimilyatsiya qilishda muqarrar bo'lgan xatolardan qo'rqishni olib tashlashga imkon beradi. Muhim shart: baholash haqiqatan ham shakllantiruvchi bo'lishi uchun uning natijalari o'qituvchini o'qitishni to'g'rilash uchun ishlatishi kerak. Ular o'quvchiga etkazilishi va rejalashtirish uchun ishlatilishi kerak. Nafaqat o'qituvchi, balki bola ham yaqin kelajakda nima ustida ishlashi kerakligini tasavvur qilishi kerak. Formativ baholash o'quvchilar summativ baholashni amalga oshirishdan oldin va ko'rsatmalarni tushunib etishlarini aniqlashga qaratiladi. Summativ shakllantiruvchi baho ko'pincha o'quv sharoitida shunday ataladi o'rganishni baholash va o'rganish uchun baholash.

Summativ baholash. Summative Assessment deganda o'quvchilarni baholash tushuniladi; bu natijaga qaratilgan. Bu ishtirokchilarga vaqti-vaqti bilan, odatda kurs, muddat yoki bo'lim yakunlanganda beriladigan baholash jarayoning bir qismidir. Maqsad -o'quvchilarning bilimlarini tekshirish, yani ular o'zlari o'rgatgan materialni qay darajada o'rganganliklarini tekshirish.

Summativ baholash dars yoki dastur samaradorligini baholashga intiladi, o'quv jarayonini tekshiradi va xokozo. O'quv dasturining sifatini ko'rsatadigan va maktablarda reyting uchun asos yaratadigan.

Foydalanilgan adabiyotlar





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

1. Abdullayeva, N. (2022). ILMIY TADQIQOT OLIB BORISH KOMPETENTLIGI-BO 'LAJAK O 'QITUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 601-612.
2. Baydjanov, B. K. (2021). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF INFORMATION COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. *Theoretical & Applied Science*, (7), 171-178.
3. Maksudov, U. K. (2020). CHARACTERISTIC OF THE PROCESS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL ACTIVITY SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH FOLKLORE. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(7), 407-412.
4. Maksudov, U. K. (2020). ISSUES OF NATIONAL VALUES AND SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF POSITIVE PSYCHOLOGY. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 394-396).
5. O'rinova, N. M., & Yo'ldosheva, D. A. Q. (2021). Oliy o'quv yurti talabalarida kreativ kompetentlikni rivojlantirishda faol ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning mazmuni va samarali yo'llari. *Science and Education*, 2(12), 755-766.
6. O'Rinova, N. M., & Yo'Ldosheva, D. A. Q. (2022). OLIY O 'QUV YURTI TALABALARIDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA FAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAZMUNI VA SAMARALI YO'LLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 97-105.
7. SAIDKULOVICH, S. B., & UGLI, T. J. U. The Social Pedagogical Necessity of Developing Students' Aesthetic Culture in the Process of Globalization. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 8(1), 75-77.





Scientific Organization of Teacher's Work

O'rolova Iroda

3rd-year Student, Group 301 Faculty of Preschool and Primary Education Program:

Preschool Education Psychology and Pedagogy Termiz State Pedagogical Institute

Abstract. This article highlights the essence, principles, and importance of the scientific organization of a teacher's work. Organizing a teacher's work on a scientific basis involves planning the pedagogical process, effective time management, selecting appropriate teaching and воспитание methods, and systematically managing professional activities. This approach contributes to improving teachers' professional mastery, enhancing the quality of the educational process, and fostering students' independent thinking, creativity, and active participation. The article also analyzes the main directions of scientific work organization, its integration with modern pedagogical technologies, and factors for increasing effectiveness.

Keywords: teacher's work, scientific organization, pedagogical activity, time management, efficiency, pedagogical technologies, professional competence, innovative approach, quality of education, methodology, planning.

O' qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish.

Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim fakulteti Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi yo'nalishi 3- kurs 301-

guruh talabasi – O'rolova Iroda

Annotasiya: Ushbu maqolada o'qituvchining mehnatini ilmiy tashkil etishning mazmuni, tamoyillari va ahamiyati yoritilgan. O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish — bu pedagogik jarayonni rejalashtirish, vaqtni to'g'ri taqsimlash, o'qitish va tarbiyalash metodlarini samarali tanlash, shuningdek, kasbiy faoliyatni tizimli boshqarish jarayonidir. Ushbu yondashuv o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini yaxshilash hamda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va faollikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada mehnatni ilmiy tashkil





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

etishning asosiy yoʻnalishlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uygʻunligi va samaradorlikni oshirish omillari tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: oʻqituvchi mehnati, ilmiy tashkil etish, pedagogik faoliyat, vaqtni boshqarish, samaradorlik, pedagogik texnologiyalar, kasbiy kompetensiya, innovatsion yondashuv, taʼlim sifati, metodika, rejalashtirish.

Oʻqituvchi – tarbiyachi pedagogik mahoratining shakllanishiga muayyan tarzda taʼsir etuvchi omillar mavjud. Pedagogik nazariya va amaliy faoliyat natijalariga koʻra oʻqituvchi pedagogik mahoratining shakllanishiga taʼsir qiluvchi omillari mavjud boʻlib, ulardan eng muhimlari sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin: Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, nazariy-usuliy bilimlar; ixtisos fanlari va pedagogik faoliyat; pedagogik turkum fanlar; psixologik muhit; madaniy-tarixiy anʼanalar; urf-odatlar; diniy qadriyatlar; siyosiy voqealar; pedagogning intellektual salohiyati, axborot-kommunikativ vositalar. Shuningdek, bu kasbiy - shaxsiy xususiyatlar oʻqituvchi-tarbiyachiga, oʻquvchi yoshlarning ruhiy-jismoniy rivojlanishlari, oʻquv - biluv faoliyatlarining aktivlashuvini taʼminlash kabi bir necha pedagogik vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishning tamal toshi boʻla oladi. Qayd qilib oʻtganimizdek pedagogik mahorat har bir oʻqituvchi tarbiyachi uchun xos boʻlgan taʼlim-tarbiya ishlarini doimo yuksakka koʻtarishga, uni takomillashtirishga asos boʻluvchi sanʼatdir. Bu sanʼat oʻz ishini bilish, faoliyatini muntazam tartibga solib, nazorat qilib, yuksaklikka koʻtarish bilan tavsiflanadi. Unda eng asosiysi pedagogik-psixologik nazariyalarni samarali qoʻllash nazarda tutilgan. Zero, pedagogik mahorat va uning shakllanishi va takomillashuvi, murakkab va uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi. Bu jarayon oʻqituvchi-tarbiyachidan pedagogik-psixologik, nazariy va metodik tayyorgarlikni chuqur egallash bilan birga pedagogik axborotlarni qunt bilan muntazam oʻqib borishni, mavjud nazariy- amaliy pedagogik yutuqlardan oʻz faoliyatida oʻrinli foydalana olishga oʻrganishni talab etadi. Pedagogik mahoratni





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

shakllantirishning asosiy tamoyillari: yaxlit holda yondashuv; faol muloqot; □pedagogik harakatning x ilma- x illigi; pedagogik ta'sirining ko'p qirraliligi; nazariy bilim va amaliy malakalarning o'zaro bog'liqligi. O'qituvchi pedagogik mahoratini shakllantirishning birinchi sharti faoliyatdir. O'zbekiston milliy Ensiklopediyasida qayd qilinishicha « Faoliyat – atrofdagi olamga nisbatan insonning o'ziga xos aktiv munosabat shakli. Olamni maqsadga muvofiq va qayta o'zgartirish faoliyatining mazmunini tashkil qiladi . Har qanday faoliyat maqsad, usul, natija va jarayonlardan iborat». Faoliyat turlari, shakllari xilma-xildir. Har qanday faoliyat singari o'qituvchilik faoliyati ham maqsad, usul, vosita, obyekt va subyektdan iborat. ko'rsatishdir. Pedagogik mehnatning obyekti sifatida – o'qituvchi shaxsi turadi, uning xarakteri, irodasi, ongi, aqli, odob-axloqining asosi hisoblanadi. Pedagogik faoliyat subyekti esa – tarbiyalanuvchiga ta'sir ko'rsatuvchi – pedagogning o'zi. Chunki, u o'quvchi - talabalarga tabiat, jamiyat, tafakkur qonunlari to'g'risida ma'lumot berish uchun, avvalo, ularni o'z faoliyatining obyektiga aylantiradi. Shu tariqa bilimlar o'zlashtiriladi, o'zlashtirilgan bilimlar o'quvchi - talabalarga yetkaziladi. “ Pedagogik faoliyat , - deb yozadi psixologiya fanlari doktori, professor A.K.Markova o'zining “O'qituvchi faoliyati, muloqoti va shaxsi” nomli maqolasida, - o'qituvchi mehnatining umumiy strategiyasi, texnologiyasi, vazifalarini hal qilishga qaratilgan hamda pedagogik ta'sir o'tkazish vositalari bilan amalga oshiriladigan professional aktivligidir” 1 . Pedagogik faoliyat talaba – yoshlarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida ularga ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Natijada talabalarga bilim beriladi, ularning shaxsiy sifatleri tarbiyalanadi, psixologik xususiyatlari rivojlantiriladi . Bunda esa talaba yetuk mutaxassis sifatida kamol topa boradi. Shuning uchun kasbiy faoliyat jarayonida pedagog, ya'ni o'qituvchi- tarbiyachi, tashkil qiluvchi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, targ'ibot-tashviqot yurituvchi, ma'lumot – axborot to'plovchi va yetkazuvchi, shaxsiy xususiyatlarini va kasbiy mahoratini omillashtiruvchi shaxs sifatida faoliyat ko'rsatishi lozim. Bularning barchasi bevosita va bilvosita pedagogik mahoratning shakllanishiga





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik faoliyat aniq ko'rinishda bo'lsa, unda o'qituvchi o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish vazifalarini aniq ko'ra oladi va ularni hal qilishga harakat qiladi. Bu jarayonda faoliyat aqlni ruhiy jihatdan tayyorlaydi, ta'sir ko'rsatish vositalarini belgilaydi, natijalarni nazorat qiladi, tahlil qiladi, baholaydi va yangi vazifalarni belgilaydi. Bilimlarni o'zlashtirish vositasida shaxsning o'sishi ta'minlanadi, natijada jamiyat talabi va vazifalari bajariladi. Buning uchun o'qituvchi, avvalo, vaziyatni tushunishi, har bir talabaning o'zlashtirish jarayonini, rivojlanib shaxs sifatida shakllanish darajalarining mezonini aniq ko'ra bilish imkoniyatiga ega bo'lmog'i darkor. Bu o'z navbatida o'qituvchidan katta bilim, tajribalarni talab etadi. Bu faqat kasbiy faoliyatni to'g'ri belgilash orqali amalga oshadi. Shunga ko'ra ta'lim muassasasi oldidagi muhim vazifalarni amalga oshirish uchun o'qituvchiga pedagogik faoliyatni loyihalash zarurdir.

Xulosa

O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish ta'lim tizimini rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. U pedagog faoliyatini samarali tashkil etishga, ta'lim sifatini oshirishga va o'quvchilarning bilim darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda har bir o'qituvchi o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil etishga intilishi zarur. Bu esa kelajakda raqobatbardosh, bilimli va ijodkor yoshlarni tarbiyalashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Azizxojayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, 2018.
- Muslimov N.A. Pedagogika. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
- Yoldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Oqituvchi, 2019.
- Ishmuhammedov R.J. Talimda innovatsion texnologiyalar. Toshkent, 2017.
- Xodjayev B.X. Talim sifatini baholash va monitoring. Toshkent, 2021.
- Ozbekiston Respublikasi Talim to'g'risidagi Qonuni. 2020.
- Ozbekiston Respublikasi Prezidentining talim sohasiga oid qaror va farmonlari.





Communication in the Pedagogical Team

Meliqulov Farhod

Mamarajabova Dildora

3rd-year Students, Group 30 Faculty of Preschool and Primary Education Program:
Preschool Education Psychology and Pedagogy Termiz State Pedagogical Institute

Abstract

This article provides information for young and future teachers about pedagogical abilities and communication. It highlights key principles that serve as a foundation for developing pedagogical competence and effective communication skills in teachers.

Keywords: pedagogy, ability, communication, knowledge, skills, competence, mastery, productivity, heuristic approach, creativity, talent, teacher, student, pedagogical ability, communicative ability

Mavzu: PEDAGOGIK JAMOADA KOMMUNIKATSIYA

Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim fakulteti Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi yo'nalishi 3-kurs 30-guruh talabalar

Meliqulov Farhod Mamarajabova Dildora.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh va bo'lajak pedagoglarga pedagogik qobiliyat va kommunikatsiya haqida ma'lumotlar bayon etilgan, o'qituvchilarda pedagogik qobiliyatni shakllantirishda asos bo'ladigan ba'zi qoidalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, qobiliyat, kommunikatsiya, bilim, ko'nikma, malaka, mohirlik, mahsuldorlik, evristik, kreativlik, talant, o'qituvchi, o'quvchi, pedagogik qobiliyat, kommunikativ qobiliyat.

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik jamoaning samarali faoliyati ko'p jihatdan undagi kommunikatsiya darajasiga bog'liq. Pedagogik jamoa – bu o'qituvchilar, ma'muriyat va boshqa ta'lim xodimlaridan iborat murakkab ijtimoiy tizim bo'lib, ularning o'zaro muloqoti ta'lim sifati va tarbiya samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kommunikatsiya faqat axborot almashish jarayoni emas, balki o'zaro tushunish,





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

hamkorlikni rivojlantirish va jamoada sog'lom muhit yaratish vositasidir. Shu sababli pedagogik jamoada kommunikatsiyani ilmiy asosda tashkil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Pedagogik jamoada kommunikatsiya – bu jamoa a'zolari o'rtasida axborot, fikr, tajriba va hissiyotlar almashinuvi jarayonidir. U o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini muvofiqlashtirish, tajriba almashish va umumiy maqsadlarga erishishni ta'minlaydi. O'qituvchi dars berar ekan, avvalo uni puxta rejalashtirishi lozim. Shuningdek mavzuni qisqa vaqt ichida, kam kuch sarflab, Davlat ta'lim standartlari asosida zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda tushuntirishi muhim. Pedagog o'zi dars berayotgan sinf jamoasiga dingib, ular bilan samimiy bevosita aloqa o'rnatishi, har bir o'quvchini alohida shaxs sifatida ko'rib uning qobiliyatlarini aniqlagan holda jamoat ishlari hamda to'garaklarga jalb etishi kerak. O'quvchilar jamoasi bilan doimo fikr almashib ularni fikrlarini e'tiborga olishi ahamiyatli.

O'qituvchi tarbiyalanuvchilarga talab qo'yishi va jamoani adolat bilan boshqarib yetakchilikni o'z qo'lga olishi lozim. Sinf jamoasining norasmiy sardorni doimo kuzatib yurishi, sinfdagi har bir tarbiyalanuvchini ruhiy holatini, o'zlashtirish darajasini to'g'ri baholab yechimlar berishi zarur.

Pedagoglar nafaqat o'zining mutaxassislik fani balki u fanga bog'liq bo'lgan fanlarni ham bilishi muhim hisoblanadi.

Pedagogik jamoada samarali kommunikatsiya quyidagi jihatlarda jamoa samaradorligini oshiradi:

Muammoni birgalikda hal qilish jamoa azolari tezkor va to'g'ri qarorlar qabul qiladi;

Innovatsion goyalarni rivojlantirish yangi pedagogik texnologiyalar va yondashuvlar jamoa orqali tatbiq etiladi;

Shaxsiy va kasbiy rivojlanish pedagoglar bir-biridan organadi va tajriba orttiradi;

Ijobiy ish muhitini yaratish konstruktiv fikr almashish va hurmatli muloqot orqali jamoa ruhiyoti mustahkamlanadi;

Talim sifatini oshirish samarali pedagogik kommunikatsiya natijasida oquv jarayonida





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

bilim va konikmalar chuqurroq ozlashtiriladi.

Shu sababli pedagogik jamoada kommunikatsiya bu nafaqat axborot almashish, balki jamoaning birligi, faoliyati va talim sifatining muhim omili hisoblanadi.

Pedagogik jamoada kommunikatsiya bu jamoa azolari ortasidagi bilim, tajriba, hissiyot va qarashlarni uzatish, ozaro tushunish va hamkorlikni tashkil etish jarayonidir. Samarali kommunikatsiya pedagogik jamoaning birligini mustahkamlash, innovatsion goyalarni rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni tezkor hal qilish va talim sifatini oshirishda muhim vositadir.

Pedagogik kommunikatsiyaning samarali bolishi bir qator omillarga bogliq. Birinchidan, axborotning aniqligi va tushunarli bolishi jamoa azolari ozaro muloqotda malumotni togri va aniq etkazishi zarur. Ikkinchidan, ijodiy va konstruktiv fikr almashish tanqidiy fikr hurmat bilan qabul qilinishi va ijobiy yechimlar taklif qilinishi pedagogik jarayonni samarali qiladi. Uchinchidan, reflektiv muloqot oz faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va tajriba almashish orqali jamoa doimiy rivojlanadi.

Shuningdek, pedagogik kommunikatsiya jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qollash muhim ahamiyatga ega. Masalan, onlayn konferensiyalar, elektron platformalar, chat va interaktiv dasturlar orqali jamoa azolari ozaro tezkor va qulay tarzda muloqot qilishi mumkin. Bu esa pedagogik qarorlar qabul qilish jarayonini soddalashtiradi va jamoa samaradorligini oshiradi.

Pedagogik jamoada kommunikatsiya shuningdek motivatsiya va emotsional intellekt bilan uzviy bogliqdir. Oqituvchi oz hissiy holatini nazorat qilsa va jamoa azolarining hissiy holatini hisobga olgan holda kommunikatsiya qilsa, ijobiy ish muhitini yaratish osonlashadi. Shu bilan birga, motivatsiya strategiyalari orqali jamoa azolarining faolligi ragbatlantiriladi, tajriba almashish va hamkorlik jarayoni mustahkamlanadi.

Pedagogik kommunikatsiya jamoa samaradorligiga bir necha jihatdan tasir qiladi:

Muammoli vaziyatlarni hal qilish jamoa azolari ozaro maslahatlashib, muammolarga tezkor yechim topadi;





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

Innovatsion goyalarni rivojlantirish tajriba almashish va konstruktiv fikrlar orqali yangi pedagogik texnologiyalar tatbiq etiladi;

Shaxsiy va kasbiy rivojlanish jamoa azolari bir-biridan organadi va professional kompetensiyalarini oshiradi;

Ijobiy ish muhitini yaratish konstruktiv muloqot va hurmatli kommunikatsiya jamoaning ruhiy quvvatini oshiradi;

Talim sifatini yaxshilash samarali kommunikatsiya natijasida oquvchilarga talim berish jarayoni yanada tizimli va sifatli boladi.

Shunday qilib, pedagogik jamoada kommunikatsiya bu nafaqat axborot almashish vositasi, balki jamoa samaradorligini oshirish, talim sifatini yaxshilash va pedagoglarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Pedagogik jarayonda kommunikatsiya doimo ijobiy, konstruktiv va interaktiv bolishi kerak, shunda jamoa azolari oz bilimlarini kengaytiradi, tajriba almashadi va talim jarayoni samarali kechadi. Xulosa qilib aytganda, pedagogik jamoada kommunikatsiya ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Samarali muloqot jamoada ijobiy muhit yaratadi, pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga yordam beradi va ta'lim sifatini oshiradi. Zamonaviy sharoitda kommunikatsiyani rivojlantirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va jamoaviy hamkorlikni mustahkamlash muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar;

Azizxojayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, 2018.

Muslimov N.A. Pedagogika. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

Yoldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Oqituvchi, 2019.

Ishmuhammedov R.J. Talimda innovatsion texnologiyalar. Toshkent, 2017.

Xodjayev B.X. Talim sifatini baholash va monitoring. Toshkent, 2021.

Ozbekiston Respublikasi Talim togrisidagi Qonuni. 2020.

Ozbekiston Respublikasi Prezidentining talim sohasiga oid qaror va farmonlari.





Modern Assessment System in Education

Abdurahmonova Sevinchoy

3rd-year Student, Group 301

Program: Pedagogical Psychology in Preschool Education

Faculty of Preschool and Primary Education

Termiz State Pedagogical Institute

Annotation: This article discusses the importance of modern assessment systems in education, their differences from traditional assessment approaches, and their role in improving the quality of education. It also analyzes formative and summative assessment methods, competency-based assessment systems, and the role of international assessment programs. The study emphasizes that modern assessment systems evaluate not only students' knowledge but also their practical skills.

Keywords: modern assessment, formative assessment, summative assessment, competency, quality of education, international assessment programs, learning outcomes, pedagogical technologies.

TA'LIMDA ZAMONAVIY BAHOLASH TIZIMI.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

Maktabgacha ta'limda pedagogik psixologiya yo'nalishi

301-guruh talabasi Abdurahmonova Sevinchoy

Annotasiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimida zamonaviy baholash yondashuvlarining ahamiyati, ularning an'anaviy baholash tizimidan farqli jihatlari hamda ta'lim sifatini oshirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, formatif va summativ baholash usullari, kompetensiyaga asoslangan baholash tizimi hamda xalqaro baholash dasturlarining o'zni tahlil qilingan. Zamonaviy baholash tizimi o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki amaliy ko'nikmalarini ham aniqlashga xizmat qilishi ta'kidlangan.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

Kalit soʻzlar: zamonaviy baholash, formatif baholash, summativ baholash, kompetensiya, taʼlim sifati, xalqaro baholash dasturlari, oʻquv natijalari, pedagogik texnologiyalar.

Kirish.

Bugungi globallashuv jarayonida taʼlim tizimi oldiga qoʻyilayotgan talablar tubdan oʻzgarib bormoqda. Jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va innovatsion rivojlanishni taʼminlashda taʼlim sifati hal qiluvchi omil hisoblanadi. Taʼlim sifatini belgilovchi muhim mezonlardan biri esa baholash tizimidir. Anʼanaviy baholash tizimi uzoq yillar davomida oʻquvchilarning asosan nazariy bilimlarini aniqlashga xizmat qilib kelgan boʻlsa, bugungi kunda bu yondashuv yetarli emasligi ayon boʻldi. Chunki zamonaviy jamiyat faqat bilimli emas, balki oʻz bilimini amaliyotda qoʻllay oladigan, mustaqil fikrlaydigan va muammolarni hal qila oladigan shaxslarni talab etadi. Shu sababli taʼlim tizimida zamonaviy baholash yondashuvlarini joriy etish dolzarb masalaga aylandi. Mazkur maqolaning maqsadi – taʼlimda zamonaviy baholash tizimining mohiyatini ochib berish, uning asosiy turlari va afzalliklarini tahlil qilish hamda taʼlim samaradorligini oshirishdagi rolini asoslab berishdan iborat.

Asosiy qism.

Zamonaviy baholash tizimi oʻquvchilarning bilim, koʻnikma va kompetensiyalarini har tomonlama aniqlashga qaratilgan kompleks jarayondir. Ushbu tizim quyidagi muhim tamoyillarga asoslanadi:

Obyektivlik va shaffoflik – baholash mezonlari aniq va tushunarli boʻlishi;

Uzluksizlik – baholash jarayoni muntazam olib borilishi;

Individual yondashuv – har bir oʻquvchining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olish;

Rivojlantiruvchilik – baholash oʻquvchini ragʻbatlantirishi va rivojlantirishi.

Zamonaviy taʼlim jarayonida baholash (assessment) tushunchasi muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Baholash taʼlim sifatini aniqlash, oʻquvchilar bilimini





o'lchash, ta'lim jarayonining samaradorligini ko'rsatish va kelgusi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda vosita sifatida xizmat qiladi. Pedagogik adabiyotlarda baholash ko'pincha "o'quv natijalarini o'lchash" yoki "ta'lim samaradorligini aniqlash" sifatida talqin etiladi. Baholash nafaqat natijani o'lchash, balki ta'lim jarayonini yaxshilash, o'quvchilarning ehtiyojlarini tushunish, o'qituvchining faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Zamonaviy baholash o'quvchini passiv obyekt sifatida emas, balki faol ishtirokchi sifatida ko'radi. Bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Zamonaviy baholash tizimining muhim tarkibiy qismlari formatif va summativ baholash hisoblanadi. **Formatif baholash** – bu o'quv jarayonida doimiy ravishda amalga oshiriladigan baholash turi bo'lib, u o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash va uni yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu baholash turi orqali o'quvchi o'z xatolarini anglaydi va ularni tuzatish imkoniga ega bo'ladi. O'qituvchi esa o'quv jarayonini moslashtiradi. **Summativ baholash** esa ma'lum bir bosqich yakunida o'tkazilib, o'quvchining umumiy natijalarini aniqlaydi. Bu turdagi baholash nazorat va yakuniy xulosa chiqarish vazifasini bajaradi. Ushbu ikki baholash turi o'zaro uyg'un holda qo'llanilganda ta'lim samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Hozirgi zamon ta'limining asosiy yo'nalishlaridan biri kompetensiyaga asoslangan yondashuvdir. Ilmiy adabiyotlarda baholashning bir necha turlari farqlanadi.

- a) Dastlabki baholash (diagnostik assessment) – o'quvchi bilim darajasi, qiziqishi vatayyorgarlik darajasini o'quv jarayonining boshida aniqlash uchun o'tkaziladi. Bu o'qituvchiga metodikani to'g'ri tanlash imkonini beradi.
- b) Jarayonli baholash (formativ assessment) – ta'lim jarayoni davomida muntazam o'tkazilib, o'quvchining rivojlanishini kuzatish va uni rag'batlantirishga qaratilgan. Masalan, og'zaki savol-javob, kichik testlar, amaliy topshiriqlar.
- c) Yakuniy baholash (summativ assessment) – o'quv jarayoni yoki kurs oxirida natijani umumlashtirish uchun o'tkaziladi. Masalan, imtihonlar, yakuniy testlar, loyiha





ishlari.

d) Alternativ baholash – an’anaviy testlardan tashqari, portfoliolar, keys-stadi, amaliy mashg‘ulotlar orqali amalga oshiriladi. Bu usul o‘quvchining ijodkorligi va mustaqil fikrlash qobiliyatini baholashga yordam beradi.

Yakuniy qism.

Xulosa qilib aytganda, ta’limda zamonaviy baholash tizimini joriy etish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Ushbu tizim o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash bilan birga ularning kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy baholash yondashuvlari ta’lim jarayonini yanada samarali, shaffof va adolatli tashkil etishga yordam beradi. Ayniqsa, formatif va summativ baholashning uyg‘unligi, kompetensiyaga asoslangan yondashuv va xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Kelajakda ta’lim tizimini rivojlantirish uchun zamonaviy baholash usullarini keng joriy etish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova, D. (2021). Pedagogik baholash nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: TDPU.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari
3. Brown, H. D. (2004). Language Assessment: Principles and Classroom Practices. Pearson Education.
4. Black, P., & Wiliam, D. (1998). Assessment and classroom learning. Assessment in Education.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

Social Cooperation with Students

Ismatullayeva Mashxura

Hazratqulova Saodat

Students, Termiz State Pedagogical Institute

E-mail: mustafoxasanov19@gmail.com

, xhshshzh5@gmail.com

Abstract

This article discusses the study of pedagogical, social, and psychological conditions affecting child upbringing through surveys among students and the selection of educational methods suitable for our national mentality. It also emphasizes effective use of these approaches in practice. The article highlights the essence of social cooperation with students, its role, and importance in the educational process. Furthermore, it analyzes effective ways of organizing cooperation between students, parents, teachers, and society.

Keywords: social activity, spiritual activity, culture, broad worldview, sociality, pedagogical situation, skills, social cooperation, student, team, communication, mutual respect, solidarity, group work, activity, responsibility, empathy, social skills, educational process.

Õquvchilar bilan ijtimoiy hamkorlik

Ismatullayeva Mashxura va Hazratqulova Saodat

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

mustafoxasanov19@gmail.com va xhshshzh5@gmail.com

ANNOTATSIYA:Maqolada o'quvchilar o'rtasida so'rovnomalar orqali bola tarbiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik, ijtimoiy, psixologik shart-sharoitlarni o'rganish va milliy mentalitetimizga mos keladigan tarbiya uslubini tanlash, ish jarayonida unumli foydalanish haqida so'z yuritilgan.o'quvchilar bilan ijtimoiy hamkorlikning mazmun-mohiyati, uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek,





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

o'quvchilar, ota-onalar, pedagoglar hamda jamiyat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni samarali tashkil etish yo'llari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy faollik, ma'naviy faollik, madaniyat, keng dunyoqarash, ijtimoiylik, pedagogik vaziyat; ko'nikma. Ijtimoiy hamkorlik, o'quvchi, jamoa, muloqot, o'zaro hurmat, hamjihatlik, guruhda ishlash, faollik, mas'uliyat, empatiya, ijtimoiy ko'nikmalar, tarbiyaviy jarayon.

O'zbekistonda islohotlarning davomiyligini ta'minlash hamda demokratik fuqarolik jamiyatini shakllantirish, yoshlar, xususan, ularning ijtimoiy faolligiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 2017 yil 19 sentyabrdagi 72-sessiyasida so'zlagan nutqida: «... Bizning asosiy vazifamiz - yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi «virusi» tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. Shu munosabat bilan O'zbekiston globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat - BMTning YOshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi. Bizning nazarimizda, mazkur hujjatni imzolaydigan davlatlar ushbu sohani o'z ijtimoiy siyosatining asosiy va muhim hayotiy ustuvor yo'nalishlaridan biri darajasiga ko'tarish bo'yicha qat'iy majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi kerak» - degan fikrlari dunyo hamjamiyati tomonidan ham keng e'tirof etilmoqda. Yosh avlodning har tomonlama kamol topishi jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omil bo'lishi bilan bir qatorda uning shaxs sifatida ijtimoiy faollashuvida ham etakchi o'rin tutadi. O'quvchi shaxsining ijtimoiy faolligi quyidagi ikki jihatga ko'ra muhim ahamiyatga ega: birinchidan, shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun zamin yaratadi, ikkinchidan esa, uning bilimi, kuch-quvvati, imkoniyati hamda iqtidori jamiyat rivoji yo'lida mehnat





qilishga yo'naltiriladi. Manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, demokratik jamiyatda o'quvchilar ijtimoiy faolligi o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, balki muntazam tarzda maqsadli ravishda olib borilgan pedagogik faoliyat natijasida shakllantiriladi. O'quvchi-yoshlarga nazariy-amaliy bilimlarni berish, ularda ijtimoiy faollik ko'nikma va malakalarini hosil qilish pedagogika nazariyasi va amaliyoti uchun ham o'ziga xos ahamiyatga ega ekanligi bilan dolzarblik kasb etadi.

ADABIYOTLARNING TAHLILI VA METODOLOGIYA

Muammoga oid nazariy manbalar hamda uning amaliy holatini o'rganish natijalari mazkur sohada bir qator ziddiyatlarning mavjudligini ko'rsatdi. Xususan:

demokratik jarayonda o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan ularning bilim, ko'nikma va malakalari, mavjud ijtimoiy faollik kompetensiyalari o'rtasidagi nomutanosiblik;

o'quvchilar ijtimoiy faolligining o'z-o'zidan yuzaga kelmasligi, balki doimiy ravishda olib boriladigan pedagogik faoliyat natijasida shakllantirilishi va bu jarayontadqiqiy va tahliliy yo'nalishga ega bo'lgan pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqilmaganligi;

o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faollashuvining bir qator o'ziga xos xususiyatlari va omillari mavjud bo'lib, ular etarlicha o'rganilmaganligi;

- o'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning ilmiy asoslangan samarali shakl, vosita va metodlarini qo'llanilishiga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi. Faol (lot. «activus» so'zidan olingan bo'lib), biror ishga g'ayrat bilan kirishadigan, astoydil ishlaydigan, ishchan, aktiv deb izohlanadi.

Pedagogika ensiklopediyasi [66] da esa ijtimoiy faollik - 1. ijtimoiy sub'ektlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokining, mehnat hamda madaniy-ma'rifiy faoliyatining kuchayishi, qonunda belgilab qo'yilgan huquq va burchlarini to'liq amalga oshirishga intilishini ifodalovchi tushuncha. 2. Sub'ektning jamiyat hayotida ongli holda mustaqil ishtirok etishi, ma'lum ijtimoiy-ma'naviy sohada vujudga keladigan





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

muammolarni hal etishga qaratilgan harakatidir. Ijtimoiy faollik shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishi va xulq-atvorini ongli ravishda boshqarishining asosiy sharti hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, shaxs faolligini shunday izohlash mumkin: ijtimoiy faollik - shaxsning maqsadga yo'naltirilgan faoliyati bo'lib, ijtimoiy voqelikka nisbatan individual munosabati va tizimli xatti-harakatlarining yuksak ko'rinishini ifodalovchi tushuncha

Ijtimoiy faollik umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayon mazmuni ustida ishlash va tarbiyaviy jarayon sub'ektlarining o'zligini namoyon qilishlarida katta imkoniyatlarga ega. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 aprelda qabul qilingan 187-sonli «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori asosida o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish zaruriyati ustuvor o'rin egallamoqda. Mazkur tayanch kompetensiyalar: kommunikativ kompetensiya, axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi, o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, milliy va umummadaniy kompetensiya, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasidan iborat bo'lib, ulardan ayniqsa: o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi o'quvchilardan ham o'qituvchilardan ham ijtimoiy faollik ko'nikmalariga ega bo'lishni talab qiladi. qo'yildi, u tashkilotdan yoshlar hayotidagi eng dolzarb masalalarni hal qilishni talab etadi, ayniqsa uyushmagan yoshlar hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoitlar yaratish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasb-hunarga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, ularning tashabbuslarini rag'batlantirish shular jumlasidan.

O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi tashkil etilgan kun - 30 iyunni YOshlar kuni sifatida e'lon qilinishi ham juda ramziydir. Sababi ushbu Ittifoq davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan davlatning yoshlar





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

siyosatini amalga oshirishda samarali faoliyatni ta'minlaydigan, «Yoshlar - kelajak quruvchisi» shiori ostida professional faoliyatni amalga oshiradigan tuzilmaga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Azizxojayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, 2018.

Muslimov N.A. Pedagogika. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

Yoldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Oqituvchi, 2019.

Ishmuhamedov R.J. Talimda innovatsion texnologiyalar. Toshkent, 2017.

Xodjayev B.X. Talim sifatini baholash va monitoring. Toshkent, 2021.

Ozbekiston Respublikasi Talim to'g'risidagi Qonuni. 2020.

Ozbekiston Respublikasi Prezidentining talim sohasiga oid qaror va farmonlari.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

International Experience of Pedagogical Mastery

Qurbonova Shahlo Fahriddin qizi

3rd-year Student, Group 301

Program: Preschool Education Psychology and Pedagogy

Faculty of Preschool and Primary Education

Termiz State Pedagogical Institute

ABSTRACT

This article analyzes the international experience of pedagogical mastery and its role in the modern education system. It examines global practices aimed at improving teachers' professional competence, effective organization of pedagogical activities, and the use of innovative educational technologies. The study also presents a comparative analysis of approaches used in countries such as Finland, Singapore, and Japan in developing pedagogical skills.

KEY WORDS

Pedagogical mastery, international experience, professional competence, innovative education, education quality, teacher activity, pedagogical technologies, Finland education, Singapore education system, Japan experience.

PEDAGOGIK MAHORATNING XALQARO TAJRIBASI

Termiz Davlat Pedagogika institute

Maktabgacha talim psixologiyasi va pedagogikasi yoʻnalishi

3-kurs 301-guruh talabasi

Qurbonova Shahlo Fahriddin qizi

ANNOTATSIYA





JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH VOLUME-1, ISSUE-4, 2026

Ushbu maqolada pedagogik mahoratning xalqaro tajribasi va uning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni tahlil qilinadi. Jahon miqosida samarali pedagogik faoliyatni tashkil etish, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish hamda ilg'or ta'lim texnologiyalaridan foydalanish tajribalari o'rganiladi. Shuningdek, Finlyandiya, Singapur, Yaponiya kabi mamlakatlarning ta'lim tizimida pedagogik mahoratni oshirishga qaratilgan yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinadi.

KALIT SO'ZLAR:

Pedagogik mahorat, xalqaro tajriba, kasbiy kompetensiya, innovatsion ta'lim, ta'lim sifati, o'qituvchi faoliyati, pedagogik texnologiyalar, Finlyandiya ta'limi, Singapur ta'lim tizimi, Yaponiya tajribasi.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida yoshlarning ta'lim-tarbiyasi eng ustuvor masalalardan hisoblanadi. Ta'limning samaradorligi va jozibasi shu jarayonda faoliyat yuritayotgan pedagog hodimlarning ilmiy salohiyati, malakasi va mahorati bilan belgilanadi. Mahorat - muayyan ish, xatti-harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalar majmui. Pedagogik mahorat pedagog tomonidan kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalar majmui. Pedagogik mahorat tushunchasiga turli adabiyotlarda turlicha ta'riflar berilgan. «Pedagogik ensiklopediyada quyidagicha izohlangan: «O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutahassis.»>> Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib, o'qituvchining pedagogik mahorati mazmunini shunday izohlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatgichi.

2. O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.

3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatda foydalana olishi.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

4. O'quv tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o'zaro bir- biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy komponentlardan iborat:

1. Pedagogik insonparvarlik talablariga bo'ysunishi.

2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilishi.

3. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish.

4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamlı islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. O'quvchilarda ijtimoiy ong va tarixiy tafakkurni shakllantirish, dunyo xalqlari hamda ko'p millatli xalqimizning tarixi va bugungi kuniga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini tarbiyalash zarur. Bu pedagog kadrlarimiz oldida turgan eng muhim vazifadir. Pedagogning ijodiy potentsiali uning oz ijodkorlik sifatlarini shakllantirishga intilishida, pedagogik odobining namoyon bo'lishida, qobiliyati va kasbiy malakasini oshirishida, kutilmagan vaziyatlarda topqirlik qila olishida, o'quvchi va talabalarni komillik sari mohirlik bilan yetaklay olishida ko'rinadi. O'qituvchining ijodkorligi nafaqat dars jarayonlarida qolaversa, darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ijodiy to'garaklar faoliyatida, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda takomillashib boradi. Bu ayniqsa ijtimoiy gumanitar fan sohasida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning mahoratida o'z aksini topadi.

Ta'lim jarayonida pedagogik mahoratning o'rni, o'qituvchining nafaqat o'z fanini bilishi, balki uni samarali o'rgata olish mahoratiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Pedagogik mahorat ta'lim sifatini oshirishda bir necha jihatlarni o'z ichiga oladi:





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

1. Pedagogik mahorat va ta'lim sifati o'rtasidagi bog'liqlik

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori pedagogik mahoratga ega o'qituvchilar o'quvchilarning faolligini oshiradi, bilimlarni mustahkamlaydi va ularning qiziqishini kuchaytiradi. Innovatsion metodlar va texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonida yanada samaradorlikka erishishga yordam beradi.

2. Shaxsiy fazilatlarining o'rni O'qituvchining muloqot qobiliyati, mas'uliyat hissi va o'ziga ishonchi o'quvchilar bilan samarali munosabat o'rnatishda muhim omil hisoblanadi.

Yaxshi pedagogik mahoratga ega o'qituvchilar o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Innovatsiyalar va pedagogik mahorat Innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash pedagogik mahoratning muhim ko'rsatkichidir. Bu yondashuv o'quvchilarni mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilishga o'rgatadi. Pedagogik texnologiyalar, masofaviy ta'lim -Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, masalan, masofaviy ta'lim platformalari, ta'limda hamkorlik va ijodkorlikni rivojlantirishda samarali vositalar hisoblanadi.

4. Amaliyot va nazariyaning uyg'unligi

Pedagogik mahoratning rivojlanishi nafaqat nazariy bilimlarga nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy tajribaga ham asoslanadi. O'quvchilarning ehtiyojlariga moslashish, individual yondashuv va amaliy mashg'ulotlar orqali o'qituvchi o'z mahoratini oshiradi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning chuqurlashuvi Pedagog: har bir o'quvchining individual rivojlanishini kuzatish, moslashtirilgan o'qitish usullarini qo'llash, kompetensiya asosida baholash kabi ishlarda yangi yondashuvlarni o'zlashtirishi zarur. Soft-skills rivoji: kommunikativ va emotsional mahorat Kelajak o'qituvchisi quyidagi ko'nikmalarni kuchaytiradi: samarali muloqot, konfliktlarni boshqarish, emotsional intellekt, stressni boshqarish, jamoa bilan ishlash. Bu ko'nikmalar ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Innovatsion metodlar va interfaol





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

ta'limIstiqbolda pedagoglar:STEAM,loyiha asosida o'qitish (Project-based learning),tadqiqotga yo'naltirilgan o'qitish gamifikatsiya kabi metodlarni yangichavtalqin qiladi O'qituvchining o'z ustida ishlashi (lifelong learning)Kelajakda pedagogning mahorati uning uzluksiz rivoji bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik. Toshkent 2011-yil.
2. Omonov H. T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogi mahorat. Darslik. Toshkent 2009-yil.
3. Erkaboyeva N. Pedagogik mohorat. Oquv qo'llanma. Toshkent. 2020-yil.
4. Tajibayev, M. A., & Axmedov, J. T. (2022). Sinergetik yondashuv-yoshlarning yangi dunyoqarashini shakllantirishning asosiy jihatlaridan biri sifatida. *Scientific progress*, 3(3), 527-532.
5. Jo'rayev, S., & Abdurasulov, J. (2024). SUBJECT, TASKS AND CONTENT OF STUDYING THE BASICS OF MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION. *Академические исследования В современной науке* 3(7), 149-153.извлечено <https://www.econferences.ru/index.php/arims/article/view/13106>
6. Абдурасулов, Ж. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСВОЕНИИ УРОКОВ ИСТОРИИ. *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING*, 113-115. Retrieved from 1(10),<https://researchedu.org/index.php/iclt/article/view/1778>
7. Umaraliyeva, D. (2024). O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI VA YOSHLARNING HUQUQLARI. В *YANGI O'ZBEKISTON PEDAGOGLARI AXBOROTNOMASI* (Т. 2, Выпуск 10, сс. 16-20).Zenodod.<https://doi.org/10.5281/zenodo.14263834>





**Effective Interpersonal Communication and Aspects of
Communicativeness**

Xolova Mohigul Shavkatovna

Lecturer, Termiz State Pedagogical Institute

Toshmurodova Marjona Shuhrat qizi

Xolmamatova Nilufar

3rd-year Students, Program: Preschool Education Psychology and Pedagogy

Termiz State Pedagogical Institute

Abstract

This article provides information on methods of effective interpersonal communication and the development of communicative skills, as well as the importance of following proper speech culture. It discusses key aspects of improving communication abilities in social and pedagogical contexts.

Keywords: person, communication, society, pedagogue, Eastern upbringing, functions of communication, interaction, communicativeness.

**SHAXSLARARO SAMARALI MULOQOT VA
MULOQOTCHANLIK JIHATLARI**

Xolova Mohigul Shavkatovna

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Toshmurodova Marjona SHuhrat qizi





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

Xolmamatova Nilufar

Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi yo'nalishi 3- bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada shaxslararo samarali muloqot qilish usullari hamda muloqotchanlik jihatlarni rivojlantirish, to'g'ri so'zlash madaniyatiga rioya qilishga doir bir qancha malumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: shaxs, muloqot, jamiyat, pedagog, sharqona tarbiya, muloqot funksiyalari, muomala, muloqotchanlik.

Muloqot tushunchasining turlicha ta'riflari mavjud. Muloqot ikki yoki undan ortiq odamlar o'rtasidagi bilish yoki affektiv – baholash xususiyatiga ega bo'lgan axborot almashinuvida ularning o'zaro ta'sirlashuvi sifatida ta'riflanadi. Yoki muloqot – odamlar o'rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o'zaro ta'sirning yagona yo'lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo'lgan aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni. Bu “ muloqot” tushunchasining eng to'liq va aniq ta'rifidir.

Muloqot barcha tirik jonzotlarga xosdir, lekin odam darajasida u eng takomillashgan shakillarga ega bo'ladi, nutq vositasida anglanadi. Muloqotda quyidagi nuqtai nazarlar ajratiladi: mazmun, maqsad va vositalar.

Insonning nutq faoliyati inson ongining barcha qirralari bilan chambarchas bog'langan. Nutq - inson psixik kamolotining, shaxs sifatida shakillanishining qudratli omilidir. Nutq ta'siri ostida qarashlar, e'tiqodlar, intellektual, ma'naviy va estetik hissiyotlar tarkib topadi, iroda fe'l - atvor shakillanadi. Nutq yordamida barcha bilishga oid psixik jarayonlar erkin va boshqariladigan tus oladi. SHunday ekan, nutq – bilishga oid psixik jarayon bo'lib inson tomonidan talaffuz qilinayotgan





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

va eshitib turilgan tovushlar uyg'unligidan iborat, ayni vaqtda shu tovushlarga mos yozuv belgilari tizimi orqali ifodalangan ma'no va mazmunga ega.

Muloqot mazmuni - bu individualliklararo aloqalarda bir insondan ikkinchisiga yetkaziladigan axborot. Muloqot mazmuniga insonlarning ichki motivatsion yoki emotsional holati haqidagi ma'lumotlar kirishi mumkin. Muloqot orqali bir inson ikkinchi insonni ma'lum tartibda aloqaga kirishishiga yo'naltiruvchi, ularning emotsional holatlari mamnunlik, shodlik, g'azab, qayg'u, hijron va shu kabilar haqidagi ma'lumotlarni yetkazishi mumkin. Bunday axborot odamdan odamga yetkaziladi va shaxslararo aloqalar o'rnatish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Biz, ochiq ko'ngilli va shodlanayotgan odamga qaraganda, g'azablanayotgan yoki azob chekayotgan odamga nisbatan o'zimizni boshqacha tutamiz. Odamlar bir-biri bilan dunyo haqidagi bilimlar, ottirilgan tajriba, layoqatlar, malaka va ko'nikmalarni jamlagan axborot bilan almashadilar. Inson muloqoti ko'p jisimli bo'lib, ichki mazmuniga ko'ra turli- tumandir.

SHaxslararo muloqot - sub'ektlar o'rtasidagi har qanday aloqa turi. Nizolar va ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish uchun ma'lum ijtimoiy qoidalar joriy etiladi. Albatta istisnosiz hamma uchun mos keladigan xulq - atvorning qat'iy namunasi yo'q, chunki barchamiz har xil bvelgilarga egamiz, ammo shunga qaramay, xulq - atvor madaniyatiga rioya qilish foydali bo'ladi. Shaxslararo muloqot rasmiy va suhbatli bo'lishi mumkin. So'zlashuv nutqidan foydalanish muloqotni insonparvar qiladi va odamlarni bir - biriga yaqinlashtiradi. Og'zaki til hissiy rang, erkinlik va moslashuvchanlik bilan ajralib turadi, shuningdek, og'zaki bo'lmagan habarlarning har xil turlaridan foydalanishning yuqori chastotasi bilan tavsiflanadi. Muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun siz suhbatdoshingizning kayfiyati va holatini his





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

qilishni o'rganishingiz kerak. Muloqotda suhbatni ikkala tomon uchun qulay bo'lgan yo'nalishda tinglash va davom ettirish juda muhimdir. Muloqotdagi qiyinchiliklar ko'pincha shaxslar aro munosabatlarda paydo bo'ladi, suhbatdoshlardan biri ko'nikmalarga ega bo'lsa ham, shubhasiz, g'oyalardan uzoq bo'lgan boshqa odam bilan muloqot qilishda qiyinchiliklar paydo bo'ladi.

Muomila sub'ektiv tajribali va ob'ektiv tajribaga bo'linadi. Ushbu ikki guruhni bir nechta kichik guruhlariga bo'lish mumkin. Ulardan biri, birlamchi deb ataladi, suhbatdoshlar o'rtasidagi xarakter va temperamentlar to'qnashuvini o'z ichiga oladi. Ikkilamchi muammo o'tmishdagi shaxslararo munosabatlardagi muvaffaqiyatsizliklar yukidan kelib chiqadi. muloqot jarayonida odamlar bir - birlari bilan o'zaro malumot almashib, o'zaro ta'sir ko'rsatibgina qolma, balki bir-birlarini to'g'riroq va aniqroq anglashga, tushinishga va idrok qilishga harakat qiladilar. Bu tomon shaxsiy idrok va tushunish muammosi bilan bog'liqdir. Birgalikdagi faoliyat jarayonida shaxslarning bir- birlarini to'g'ri tushinishlari aniq idrok qilishlari muloqotning samarali bo'lishini taminlaydi. Rus psixologi A.A. Bodalev boshchiligidagi laboratoriya bir- birlarini idrok qilish mexanizmlarini aniqlash borasida qator psixologik qonuniyatlarni kuzatgan. Bunday mexanizmlarga: identifikatsiya, refleksiya, sterotipizatsiya kiradi.

Shaxs rivojlanishida muloqotning roli to'g'risida psixologlar A.A. Lyublinskaya, D.B. Elkoninlar bolada o'yin faoliyati orqali muloqotning shakillanishini ta'kitlaydilar. Muloqot orqali shaxsning harakteri, irodaviy sifatlari shakillanishi haqida P. Y. Galperin, N. F. Dobro'nin, N. F. Talizinalar o'zlarining tatqiqotlarini o'tkazganlar.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

Shuningdek Respublikamiz psixologlaridan M. G. Davletshin, E. G'oziyev, N.P. Anikeyeva, N.Safoyev kabilar muloqot muammosini turli tomondan yoritib berganlar. Jumladan, professor E.G'oziyev " Muomila psixologiyasi" o'quv qo'llanmasida muloqotning barcha qirralarini nazariy tomondan ochib berishga harakat qilgan. Professor M.G.Davletshin ham " Umumiy psixologiya" o'quv qo'llanmasida muloqotni kishilarda qanday shakillanishi haqida fikrlar bildirgan. Samarali muloqot maqsad yoki niyat eng yaxshi tarzda amalga oshishi uchun g'oyalar, fikrlar, bilimlar va ma'lumotlarni almashish jarayoni. Oddiy so'z bilan aytganda, bu jo'natuvchi tomonidan qabul qiluvchi tomonidan eng yaxshi tushuniladigan tarzda qarashlarni taqdim etish. Samarali muloqot qilish sizga nafaqt kimgadir xabaringizni yetkazishingizni , balki his- tuyg'ularingiz va his- tuyg'ularingiz haqida xabar berishingizni ta'minlaydi. Samarali muloqot ko'nikmalariga misollar :

- Og'zaki bo'lmagan muloqot. Og'zaki bo'lmagan muloqot tana tili sifatida ham tanilgan.
- Ochiq fikirli bo'ling
- Faol tinglash
- Refleksiya
- Murosaga kelish

Muloqot samarali bo'lganda, u barcha ishtirok etgan tomonlarni qoniqarli va o'zini muvaffaqiyatli his qiladi. Xabarlarini aniq yetkazib berish orqali xabarlarini noto'g'ri tushunish yoki o'zgartirishga o'rin yo'q, bu esa mojaro ehtimolini kamaytiradi. Muloqotning samaradorligi uchta omilga bog'liq : mazmun, kontekst, va qabul qiluvchi. Konted - bu til deb nomlanuvchi xabarning bir qismini tashkil





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

etuvchi haqiqiy so'zlar yoki belgilar. Bu og'zaki yoki yozma bo'ishi mumkin. Samarali aloqa vositalari ma'ruzachi e'tiborini tinglovchining u yetkazmoqchi bo'lgan xabarni to'liq tushunishini ta'minlashga qaratadi. Samarali aloqa ma'ruzachining xabarni imkon qadar qisqa vaqt ichida yetkazishga harakat qilishini anglatadi. Ish joyida samarali muloqot ayniqsa muhimdir. Bu haqiqiy foyda keltirishi mumkin, masalan, bo'limlar ichidagi keraksiz raqobatni kamaytirish. Shuningdek u xodimlarning birgalikda yanada uyg'un ishlashiga yordam beradi. Bu o'z navbatida jamolarning yanda samarali ishlashiga olib kelad, agar muloqot qilish jarayonida odamlar hamsuhbatining fikrlarini, tuyg'u va hislatlarini to'g'ri baholamagan holda tushunishga harak qilishsa, u hola komnukativ muloqot hisoblanmaydi. Samarali komnukativ muloqotni olib boorishni har bir kishi individual ravishta o'zi tanlaydi, bunda u atrofdagi odamlardan, asosan ota - onasi va o'qituvchisidan namuna oladi.

Muloqot uchun eng muhimi - eshita olish qobilyatining mavjudligi bo'lib, bu qobilyatlarning ichida eng asosiysi hamdir. Eshitishni o'rganing va u gapirishdan ham juda muhimroqdir. O'zgani eshita bilish haqiqattan ham juda qiyin va u boadablikning eng yuqori cho'qqisidir. Eshita olish ko'nikmasiga eg bo'lmasdan samarali muloqot qilish mumkin emas.

Bugungi zamonaviy dunyo shunday tashkil topganki, atrofdagi sostiium bilan komnukativ muloqotlarsiz, hayotda va ish faoliyatida muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. O'zini hurmat qiluvchi, hayotiy muvaffaqiyatlarga erishishni istovchi, yoshi, statusi, jinsi va millatidan, faoliyat doirasidan qat'iy nazar, har bir individ muloqot qoidalarini bilishi lozim.





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

Foydalanilgan adabiyotlar

1. V.M.Karimova Ijtimoiy psixologiya Toshkent 2017 yil.
2. E.G'oziyev "Muomala psixologiyasi" o'quv qo'llanma.
3. M.G. Davletshin "Umumiy psixologiya" o'quv qo'llanma.
4. V.M.Karimova Ijtimoiy psixologiya darsligi.
5. Kamolava S. & Amanxonova, Y. (2022). O'quvchilar tafakkuri jarayonlarini shakillantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati. Jurnal Pedagogiki I psixologii v sovremennom obrazovanii, 2 (6).
6. Kamolova S. & Maxmudova, A. (2023). Oliy ta'lim muassasalarida pedagogic kadrlarni tayyorlashning psixologik jihatlari. Jurnal pedagogiki I psixologii v sovremennom obrazovanii, 3 (1).
7. Pedagogika. X. Ibragimov, SH. Abdullaeva. - Toshkent, 2007.
8. Karimova V. Psixologiya. Toshkent , 2000.
9. Karnegi D. Muomala sirlari. Toshkent, <<Navro'z >>, 1992.
10. Adizova T. Boshqaruv muloqot psixologiyasi. Toshkent 2000.





TABLE OF CONTENTS | СОДЕРЖАНИЕ

1.	CHARACTERISTICS OF PSYCHOLOGICAL FACTORS THAT CAUSE STRESS IN STUDENTS' ACADEMIC ACTIVITIES <i>Mushtariy Zokirova</i>	3–8
2.	CONTENT AND SIGNIFICANCE OF PEDAGOGICAL INNOVATIVE TECHNOLOGIES <i>Farangiz Djamilitdinova , Abdumalik Kuchkinov</i>	9–15
3.	INNOVATIVE FORMS AND METHODS IN PRIMARY READING LESSONS <i>Farangiz Djamilitdinova , Abdumalik Kuchkinov</i>	16–22
4.	ANALYSIS OF CURRENT EDUCATIONAL CONTENT AND SOURCES FOR IMPROVEMENT <i>Farangiz Djamilitdinova , Abdumalik Kuchkinov</i>	23–32
5.	A Comparative Analysis of Labov’s Sociolinguistic Studies (1963 – 1972) <i>Munisa Nabiyeva</i>	33–36
6.	Ways of Developing Pedagogical Mastery <i>Farida Karimova , Marjona Norqulova</i>	37–43
7.	Nonverbal Means in Pedagogical Communication <i>Gavhar Tillayeva , Feruza Bo‘riyeva</i>	44–47
8.	Creativity in Pedagogical Mastery <i>Sevinch Bozorova , Shoira Ishmamatova</i>	48–53
9.	Pedagogical Observation and Diagnostics <i>Sevara To‘raeva , Muhayyo Xo‘shboqova</i>	54–57
10.	Pedagogical Diagnosis and Monitoring <i>Kamola Po‘latova</i>	58–63
11.	Pedagogical Reflection and Logical Thinking <i>Ganjina Azizova</i>	64–67
12.	Modern Approaches in Pedagogical Control <i>Rayhona Ro‘ziyeva , Sohiba Zamonova</i>	68–72
13.	Initiative in Pedagogical Activity <i>Nazokat Eraliyeva , Linnura Turayeva</i>	73–77
14.	Modern Assessment System in Education	78–83





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-4, 2026**

	Zarnigor Choriyeva , Fazilat Jo‘rayeva	
15.	Scientific Organization of Teacher’s Work Iroda O‘rolova	84–87
16.	Communication in the Pedagogical Team Farhod Meliqulov , Dildora Mamarajabova	88–91
17.	Modern Assessment System in Education Sevinchoy Abdurahmonova	92–95
18.	Social Cooperation with Students Mashxura Ismatullayeva , Saodat Hazratqulova	96–100
19.	International Experience of Pedagogical Mastery Shahlo Qurbonova	101–105
20.	Effective Interpersonal Communication and Aspects of Communicativeness Mohigul Xolova , Marjona Toshmurodova , Nilufar Xolmamatova	106–112

